

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**TURKIY TILLAR FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

4-kurs talabasi

**TURAQULOVA GULBODOM BERDIYOROVNA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: «ADABIY TA’LIMDA SHEKSPIR HAYOTI VA
IJODINI O‘RGATISH»**

Talaba:

G.Turaqulova

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dos. K.Tashanov

Kafedra mudiri:

f.f.d., dotsent S.Matyakupov

*O‘zbek adabiyoti kafedrasi yig‘ilishining 2022- yil ____ - maydagi ____ -
bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS 2022

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Turaqulova Gulbodom Berdiyorovnaning «**Adabiy ta'limda Shekspir hayoti va ijodini o'rgatish**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «____» ball («____%») qo'yilsin.

DAK kotib(as)i:

G. Turaqulova

MUNDARIJA:

KIRISH	4
I BOB. ADABIY TA'LIMDA SHEKSPIR IJODIY MEROSINI YANGILANGAN PEDAGOGIK TAFAKKUR TAMOYILLARI ASOSIDA O'RGATISH	11
1.1. Davlat ta'lim standarti va o'qitish usullari.....	11
1.2. Shekspir ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari.	19
II BOB. ADABIY TA'LIMDA SHEKSPIR IJODIY MEROSINI O'QITISHDA TAHLIL VA TALQIN USULLARI	34
2.1. Adabiy ta'lim jarayonida Shekspir ijodini o'rgatish usullari muammosi tadqiqi	34
2.2. Adabiy ta'limda Shekspir ijodi namunalarini o'qitishda tahlil va talqin usullari	43
III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI	57
3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.....	57
3.2. Dars ishlanma	62
XULOSA	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72

KIRISH

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrning birinchi choragi dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan davr bo'lib, turli mafkuralar to'qnashuvi keskin tus olayotir. Bugungi kunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat qudrati bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ajdodlarimiz yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida tarbiyalash; el-yurt manfaatlarini yo'lida yashab, mehnat qiladigan yurtsevar, millatparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Adabiy ta'lim jarayonida jahon adabiyotining yirik vakili Uilyam Shekspir kabi so'z san'atkorlari ijodini samarali ta'lim usullariga tayanib o'rgatish vositasida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish ham dolzarb masalalardan biridir. O'quvchi yoshlar qalbida yuksak insoniy tuyg'ular chuqur ildiz otishi jamiyat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ma'naviyatning qudratli kuchga aylanishi tezlashadi.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan, qudratli ta'sir kuchiga ega badiiy adabiyot vositasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mumkinki, bu o'ta muhim vazifani adabiy ta'lim amalga oshiradi. Mustaqillik yillarida adabiy ta'lim jarayonida sho'r yoki yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish vositasida yoshlarga el ardog'idagi yaratuvchi, fidoyi, iste'dodli so'z san'atkorlarini tanitish va ibrat qilib ko'rsatish; ijod namunalarini tahlilu talqin qilish orqali ular shaxsiyatiga o'quvchini yaqinlashtirish, fazilatlarini va o'ziga xos tafakkur tarzini, ruhiyatini anglatish; har bir ijodkorning betakror badiiy olami, e'tiqodi, dunyoqarashi mohiyatini, kechinma hamda tuyg'ulari zamiridagi ma'nolarni tushunishga ko'maklashish eng samarali yo'l ekanligi isbotlandi. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda jahon adabiyotining yirik vakili Uilyam Shekspir ijodini umumiy o'rta ta'limlari adabiy ta'limida ilg'or ta'lim metodlari va usullariga tayanib o'rgatish orqali o'quvchilar ma'naviyatini

yuksaltirish, o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslari, uning samarali usullari muammosi o'rganilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shoir yoki yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish masalasi mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham, istiqloq davri adabiyot o'qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Ammo o'tgan asrning 60-90-yillari oralig'ida olib borilgan tadqiqot ishlari uchun umumiy xususiyat shoir yoki yozuvchi qiyofasini belgilashda g'oyaviylik, partiyaviylik va sinfiylik mezonlariga tayanishda ko'zga tashlanadi. Keyingi davrda ijodkorning iste'dod sohibi sifatidagi ijodiy qiyofasiga o'quvchi diqqatini tortish; insoniy qalbini, ruhiyatini yaratgan asarlari tahlili orqali his qildirish; yaratgan badiiy olamining betakrorligi alomatlarini anglatish, asarlarining o'ziga xos uslubda yaratilganligini tadqiq qilishga o'rgatish masalasi metodist olimlarning diqqat markazida turibdi. Professorlar Q.Yo'ldoshev, B.To'xlijev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboeva, R.Niyozmetova kabi olimlarning ayrim maqola, tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo'llanmalarida masalaga yangicha yondashuv ko'zga tashlanadi. Uzluksiz ta'lim bosqichlarida Uilyam Shekspir ijodi namunalarini o'rgatishning pedagogik va metodik qirralari yetarlicha tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Bu xususta S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizaevlar tomonidan yaratilgan 5- sinf "Adabiyot" darsligi va bu darslikdan foydalanish bo'yicha "Adabiyot" metodik qo'llanmasi hamda Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekovlar tomonidan yaratilgan 9- sinf "Adabiyot" darsligi va undan foydalanish yuzasidan yozilgan "Adabiy saboqlar" metodik qo'llanmasidagi maqolalar hamda "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida turli yillarda chop qilingan ayrim chiqishlardan boshqa e'tiborga loyiq biror ilmiy-metodik tadqiqot yo'q¹.

¹ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: "Sharq", 2007; Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5- sinf uchun darslik). –T.: "Sharq", 2007; Yo'ldoshev Q. Yo'ldoshev Q. Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiy saboqlar (9- sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma). –T.: "Yangiyo'l Poligraph service", 2006; Yo'ldoshev Q. Yo'ldoshev Q. Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (9- sinf uchun darslik). –T.: "Yangiyo'l Poligraph service", 2010.

Professor Q.Yoʻldoshev «Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari» nomli qoʻllanmasida: «...adabiyot darsliklarida hamisha yozuvchilarning tarjimai hollariga oid maʼlumotlar beriladi. Bu maʼlumotlar, koʻpincha, bir necha sinflarda takror-takror keltiriladi va bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Yuqori sinflarda esa tarjimai holga juda katta oʻrin ajratilib, adibning hayot va ijod yoʻliga ancha batafsil toʻxtalinadi. Shu vaqtga qadar amalda boʻlib kelgan darsliklardagi bu xil maʼlumotlarda asosiy eʼtibor adibning individual qiyofasini, inson sifatidagi oʻziga xosligini, ijodkor sifatidagi ruhiyatini ochishga emas, balki ayni shu jihatlarni koʻrsatmaslikka xizmat qilar edi. Shuning uchun ham oʻquvchilarimiz adiblarni faqat ismi shanfi va yozgan asarlaridagina farqlay olishardi, xolos. Uygʻun, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari ijodkorlarning hayot yoʻllari bir-biriga juda oʻxshash tarzda talqin etilar edi»², – deb yozgan va diqqatimizni muayyan shoir hayoti va ijodini oʻrgatishdagi asosiy nuqsonga qaratgan. Holbuki, olim kuyunib taʼkidlaganiday, har bir soʻz sanʼatkorining oʻziga xos ijodiy qiyofasini uslubi va badiiy olamiga xos betakrorlik alomatlarini oʻquvchiga tushuntirishda ular yaratgan asarlari tahlilidan foydalanish lozimki, professor B.Toʻxliiev «Adabiyot oʻqitish metodikasi» darsligida ana shu masalaga diqqatni qaratgan³. «Bunday qarashlarni muayyan darajada toʻldirib, adabiy taʼlimda yozuvchi hayoti va ijodini oʻrganishdan koʻzlanuvchi bosh maqsad yaratuvchi shaxsga xos xislatlarni oʻquvchi koʻz oʻngida jonlantirish, namuna tarbiyasini ado etish barobarida har bir ijodkorning oʻziga xos, betakror badiiy olamiga oʻquvchini olib kirib, uning jozibasidan, goʻzalligidan bahra olishga, ijodkor qiyofasining yetakchi belgi va xususiyatlarini his qila olishlariga erishish tashkil etmogʻi lozim, deb hisoblaymiz», – deb yozadi pedagogika fanlari nomzodi

² Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Т., Ўқитувчи. 1996. 63-б.

³ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т., Янги аср авлоди. 2006. 113-б.

O.Usmonova «Yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatishda adabiy tahlil hamda talqindan foydalanish» nomli metodik qo'llanmasida.⁴

Olimaning shu nomdagi ilmiy tadqiqot ishida istiqbolgacha bo'lgan davr adabiy ta'limida yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish ahvoli; bu borada tahlil hamda talqinning o'рни; ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida Cho'lpon, Qodiriy, Abdulla Qahhor, Zulfiya, E.Vohidov kabi so'z san'atkorlari ijodidan ayrim namunalarni tahlil qilish usullari yoritilgan. Metodist olimalardan M.Mirqosimovanning "O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari", prof. R.Niyozmetovanning "O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish masalalari", p.f.d. Q.Husanboevaning qator so'z san'atkorlari ijodini o'rta maktabda o'rgatishga oid qo'llanmalari hamda monografiyalarida ham muayyan yozuvchi yoki shoir hayoti va ijodini o'rgatish o'tgan asrning 60-80-yillaridagi kabi biografik faktologiyaga, tarixiy xronologik prinsipga tayanib emas, bugungi adabiyotshunoslik ilmida e'tirof etilgan biografik metodga tayanib o'rganilsa, asarlari estetik tahlil qilinsa, ta'lim samaradorligi ta'minlanishi e'tirof etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasining "O'zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o'zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari: Adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik dasturi ilmiy tadqiqot ishlari rejasida hamda 2021-2022 o'quv yiliga mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Adabiy ta'lim jarayonida Uilyam Shekspir ijodini ta'lim bosqichlarida o'rgatishning samarali usullari va tavsiyalar tizimini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

⁴ Усмонова О. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини адабий таҳлил ҳамда талқин усуллариغا таяниб ўрганиш. Пед.фан.ном. дисс... -Т.: 2007. - 140 б.

❖ Uilyam Shekspir ijodi namunalarini muayyan ta'lim bosqichlarida saboq olayotgan o'quvchilar yosh, intellektual va ma'naviy-ruhiy xususiyatlariga muvofiq uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o'rgatish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik va metodik muammolar tahlili;

❖ Uilyam Shekspir ijodini o'rgatish jarayoni samaradorligini ta'minlash omillari, metod va usullarini ko'rsatish, ularning samaradorlik darajasini asoslash;

❖ Uilyam Shekspir ijodi namunalarini didaktik tahlil qilish vositasida o'quvchilarning tahlil malakalarini, og'zaki va yozma nutqini, kitobxonlik darajasini, estetik didini, mustaqil fikrlash salohiyatini o'stirishga, ularda milliy va umuminsoniy tuyg'ularni yuksaltirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

❖ O'quv dasturlarida belgilangan mavzular bilan birga ishda mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya qilingan «Otello» fojiasi tahlili vositasida o'quvchini matn mohiyatiga chuqur kirib borishga yo'llash, ijodkorning poetik tafakkur tarzini, Shekspirning hayot hodisalariga munosabatini, uslubiga xos belgi va alomatlarni o'quvchilar bevosita asar matniga tayanib, mustaqil o'rganishlariga erishishda interfaol usullardan, muammoli savol va topshiriqlardan foydalanish yo'llarini yoritish.

❖ Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi o'rganilish.

❖ Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

❖ Dars ishlanmasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Umumiy o'rta ta'lim maktablar adabiy ta'limida Uilyam Shekspir ijodini o'rgatish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Ta'lim bosqichlarida Uilyam Shekspir hayoti va ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o'rgatishning samarador metod va usullarini tadqiq qilish. Shuningdek, o'rta umumta'lim maktablari IX-darsliklari manbaviy asos bo'lib, pedagogik amaliyot materiallari, o'qitish jarayonida darsni loyihalash, zamonaviy interaktiv o'qitish usullari, muammoli

vaziyatlar shakllantirish bo'yicha olib borilgan manbalar tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlaridagi istiqlool va ma'naviyat, adabiyotga oid nazariy fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, sharq mutafakkirlarining ma'naviyat, ma'rifat, komil inson to'g'risidagi ta'limotlari, mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv-malakaviy ishida biografik tadqiq, muammoli ta'lim va tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqotda so'z san'atkori Uilyam Shekspir ijodi va "Otella" tragediyasini adabiy ta'lim jarayonida samarali ta'lim usullari asosida o'rgatish muammosi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganildi. Ishda Uilyam Shekspir ijodi va "Otella" tragediyasini o'quvchilar yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlariga moslab tanlash, tahlil qilish tamoyillari, interfaol ta'lim usullaridan foydalanib Uilyam Shekspir ijodi va "Otella" tragediyasini umumta'lim maktablarida o'rgatish metodikasi mazmuni yoritildi. Uilyam Shekspir "Otella" tragediyasida yaratgan betakror obrazlar tahlili orqali o'quvchilar dunyoqarashiga, tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish yo'llari belgilanganligi, ularda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning samarali usullari asosidagi dars loyihalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi ishimizning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shunda ko'rinadiki, ishi yaxlit holda ta'lim hamda tarbiya samaradorligini ta'minlashga, pedagogika va adabiyot o'qitish metodikasi fanlari ravnaqiga xizmat qiladi. Ishning materiallari bilan tavsiyalardan dars ishlanmalari, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar tayyorlashda, adabiyot o'qitish metodikasi fanidan maxsus kurslar yoki seminar mashg'ulotlari o'tishda ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Bitiruv malakaviy ishi natijalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar pedagogik amaliyot davrida joriy etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi: bitiruv malakaviy ish kirish, har bittasi 2ta fasllardan tashkil topgan 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 74 betni tashkil etadi.

G. Turaqulova

I BOB. ADABIY TA'LIMIDA SHEKSPIR IJODIY MEROSINI YANGILANGAN PEDAGOGIK TAFAKKUR TAMOIYILLARI ASOSIDA O'RGATISH

1.1. Davlat ta'lim standarti va o'qitish usullari.

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar"⁵ aniq belgilanib:

“- tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari”⁶ ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020. Таълим тўғрисида (lex.uz)

⁶ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020. Таълим тўғрисида (lex.uz)

Ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar bevosita adabiyot metodikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan iloji yo'q. Ilgarigi dastur va darslikka qo'yilgan talablar tubdan o'zgartirilib, "Davlat ta'lim standartlari" (bundan keyin DTS) qatori adabiyot fanida ham yangicha qarashlar vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"⁷gi 187-qarori bilan tasdiqlangan DTS ta'limda amalda qo'llanilmoqda.

Hozirgi davr darsliklarining tuzilishi va mazmuni DTS talablariga to'liq mos keladi. Lekin ularni mukammallashtira borish hayot talabidir. Shunday ekan, bugungi kunda, xususan, 2022-2023 o'quv yilidan amalga joriy etiladigan umumta'lim maktablari uchun darsliklarning yangi avlodi yaratilayotganligi tabiiy holdir. Yana bir ijobiy tomoni shundaki, an'anaviy darsliklarga raqobat sifatida elektron nashr darsliklarning yaratilayotganligi ancha quvonarli hodisa sifatida ham baholash lozim. Chunki, bu holatni bugungi zamon, bugungi dunyo qo'yayotgan eng dolzarb masala, talab sifatida e'tirof etish kerak.

Adabiyot insonning ma'naviy kamolotida, ruhoniy yuksalishida g'oyat katta o'rin tutishi - aksioma, ya'ni isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Xususan, jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifa - barkamol avlod tarbiyasida uning beqiyos xizmatni o'tay olishiga ham hech bir shubha yo'k. Biroq, bu imkonning to'la ro'yobga chiqishi uchun ayrim shartlar ko'ndalang keladiki, ular bajarilmasa, hanuz bu beqiyos kuchni "o'tin yorishga sarflab" yurgan bo'lib chiqamiz. Shu shartlardan birinchisi va barining asosida yotgani adabiy ta'limdir.

Istiqlol yillarida adabiy ta'lim sohasida ham ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Atab o'tganimizdek, yangi davlat ta'lim standartlari qabul qilindi, shu asosda o'quv dastur va rejalari ishlab chiqildi, ularga mos darslik va qo'llanmalar chop etildi. Albatta, bularning bari adabiy ta'limni yaxshilash maqsadiga

⁷ "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187-қарори. www.lex.uz

qaratilgan. Lekin hanuz ulardan kutilgan natijaga erishilmokda, deb baralla ayta olmaymiz.

“Zero, kitobxonlik madaniyati, - deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov, - kundan-kun tushib borayotgani, bir paytlar juda ko‘p o‘qiydigan xalqlardan biri sanalish da’vosida bo‘lgan xalq adabiyotining ko‘zgusi - "Sharq yulduzi"dek jurnal tirajining 1000dan oshmayotgani, matbaa jihati yuksak saviyada chop etilgan kitoblarning do‘konlarda chang bosib yotgani, yangi yaratilayotgan asarlar qizg‘in muhokamayu munozaralar uyg‘otmay, aks sado turatursin, hech bir sassiz beadam informatsiya ummoniga gapq bo‘lib ketayotgani... bunga imkon bermaydi. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: nega? Axir, qariyb yigirma yildan beri sho‘ro davri adabiy ta’limi an‘analaridan voz kechishga, adabiyotni, avvalo, badiiyat, san’at hodisasi sifatida o‘qitishga intilmayapmizmi? So‘adagi yuqorida zikr qilingan o‘zgarishlar asosida asli shu konsepsiya yotgan emasmidi?! Shundayku-ya, lekin... Shu birgina lekinni mushohada qilarkan, negadir, fikr-mulohazalar aylanib-urilib bir nuqtaga kelaveradi, k;ayta-qayta muhokama qilinsa-da, lop etib yana bittagina xulosa kelib chiqaveradi. Maqsadni to‘g‘ri belgilaganimiz xolda unga yetishning ma’qul yo‘lini tanlay bilmadik. Hakiqatan ham shundaymi? Maqsad chindanam to‘g‘ri belgilanganmi?... Ehtimol, to‘g‘ridir. Lekin bir narsani, adabiyotni badiiyat, san’at hodisasi sifatida o‘qitish degani nima ekanligini o‘zimiz uchun hali aniqlashtirib olganimizcha yo‘q ko‘rinadi”.⁸ Adabiyotshunos Dilmurod Quronov bugungi kunda eng dolzarb bo‘layotgan muammolarni to‘g‘ri ko‘targan desak xato bo‘lmasa kerak. Zero, darsliklarda berilgan materiallarni yanada to‘ldirish muammosi savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilarning qo‘shimcha materiallarni izlab topish va ularni o‘zlashtirishiga yo‘l ochadi.

Adabiyot darsliklarida va o‘qituvchilar tomonida berilayotgan barcha savol va topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda

⁸ Куронов Д. Адабий таълим хақида айрим мулоҳазалар//Адабий таълим ва ёшлар тарбияси. Республика миқёсида ўтказилган илмий-назарий анжуман материаллари асосидаги мақолалар тўплами. 3-китоб. Тошкент - 2010

qo'shimcha didaktik ilmiy va nazariy manbalardan ham foydalanish zaruratini vujudga keltiradi.

Metodist olimi Q.Husanboeva haqli ravishda ta'kidlaganidek, darsliklarda beriladigan "Savol-topshiriqlar o'quvchilarni olamni va insonlarni kuzatishga, ularning holatini his qilishga va nihoyat o'z-o'zini anglashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi ham o'z navbatida o'quvchilarni kuzatib, ularning har biri shaxsining, ma'naviyatining darajasini aniqlab olishiga imkon beradi".⁹ Boshqacha aytganda, savol-topshiriqlar mohiyat e'tibori bilan nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi uchun ham juda muhim ta'limiy didaktik vazifani bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"¹⁰gi 187-qarori bilan tasdiqlangan DTSda adabiyot fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, adabiyot fani bo'yicha o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari, **adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*)ning **V1 va V1+**, **badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining V1 va V1+** talablari belgilab qo'yilgan.

Adabiyot fanining o'quv dasturi 10-11-sinf o'quvchilari uchun davlat ta'lim standartlarining B1 darajasi talablari asosida tuzilgan bo'lib, Davlat ta'lim standartining B1 darajasi 10-11-sinflar uchun me'yor hisoblanadi. Mazkur sinflar bitiruvchilari davlat ta'lim standartining ushbu darajasi uchun qo'yilgan talablarga javob berishlari shart. Shundan kelib chiqib, har bir sinf uchun ta'lim mazmuni uzviylik va uzluksizlik asosida taqsimlangan.

O'z-o'zidan anqki, adabiyot ta'limining asosiy maqsad hamda vazifalari o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va tafakkurini rivojlantirish, so'z san'atiga, Vatanga, milliy an'ana va boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdir.

⁹ Хусанбоева Қ. «Гулнор опа» муаммоси ва унинг ечими. Тил ва адабиёт таълими. 2004 йил, 6-сон, 12-бет.

¹⁰ "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиqlаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187-қарори. www.lex.uz

DTSning bosh maqsaddan kelib chiqqan holda adabiyot o'quv fanining oldiga **qo'yilgan maqsad** quyidagilardan iborat:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish;

- milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

- o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borish.

Adabiyot fanini o'qitishning vazifalari:

- o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

- yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish hamda fanning mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat.

DTS va o'quv dasturining bosh maqsadi 10-11-sinflarda adabiyot ta'limi quyi sinflarda olingan bilimlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Bu esa adabiyot ta'limida o'rganilgan o'quv materialining maxsus takrorlanishini inkor etmaydi.

DTS asosida ishlab chiqilgan adabiyot fani bo'yicha o'quv dasturida o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari **B1** va **B1+** sifatida:

- ✓ **Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi;**
- ✓ **O'zini-o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi;**

- ✓ **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;**
- ✓ **Milliy va umummadaniy kompetensiyalar;**
- ✓ **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor**

bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

I. TK-tayanch kompetensiya

TK1-kommunikativ kompetensiya

TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya

TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalar belgilangan.

Ko'pgina hollarda mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt o'qituvchi shaxsi va o'z faniga hurmat uyg'otmoqchi bo'lgan muallimning foydasiga hal bo'lavermasa an'anaviy usullardan voz kechish, yangilikka intilish, ta'limda yangi texnologiya joriy qilish taqozo etiladi. Odatda ko'pgina o'qituvchilar o'quv yili (semestr)da bir yoki ikki marta o'tkazadigan ochiq (namunali) darslari uchun ko'proq izlanadilar, ixtirochi va kashfiyotchi sifatida namoyon bo'ladilar. Nazarimizda, bugungi va kelajak davr **“Mening har bir darsim ochiq”** deb e'lon qilishni talab qilmoqda. Bu o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni qay darajada o'zlashtirgani va ularni dars jarayonida qo'llay olishi bilan uzviy bog'liqdir. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur”¹¹.

Darhaqiqat, adabiyot fani o'qituvchisi o'qitish jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritib, noan'anaviy ta'lim usullaridan: “Konferensiya darsi”,

¹¹ Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004.-104 бет.

“Seminar darsi”, “Aralash darslar”, “O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish”, “Kasbga bog‘lab dars o‘tish”, “Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “Evrika” (O‘ylab top); ta’limning qiziqarli faol usullaridan: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yinlar”, “Sahna ko‘rinishi”, “Krossvordlar yechish”, “Zakovat savollari”, “Test-sinov” topshiriqlari, “Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish”, “Sinkveyn o‘yinlari”, shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari: “Modifikatsiyalashgan ta’lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Nuqtai nazaring bo‘lsin”, “Multimediya” va boshqalarni qo‘llashi muhimdir”¹². Adabiyot fani mazmunini takomillashtirish uchun texnologiyaning ilg‘or usullariga tayanib ish ko‘rish vositasidagina ta’lim samaradorligiga erishish mumkin.

“Dastur va darsliklarni amaliyotga joriy etuvchi muallimlarning bilimlari sust, kasbiy mahorati pastroq bo‘lsa, tabiiyki, darsliklar ilmiy-metodik jihatdan puxta bo‘lsa ham, ular bunday o‘qituvchi qo‘lida “sayramaydi”, tilsiz, jonsiz qog‘oz bo‘lib qolaveradi va darslikka “qiyinlik qilyapti” degan tamg‘ani ayni shundaylar bosadi”¹³. Ko‘rinadiki, o‘qituvchi faoliyati eng muhim omil sanaladi.

Umuman aytganda, o‘quv jarayonini takomillashtirishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yangi pog‘onaga ko‘tarishdir. Shunga ko‘ra o‘qituvchining faoliyatida qanday yangilik vujudga kelishi kerak? Avvalo u materialni shunchaki bayon etmasligi va o‘quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi, balki ularning fikrini o‘rganiladigan ob‘ektga jalb qilishi, undan muammo topishi yoki imkon bo‘lsa, o‘quvchilarning o‘zlarini mazkur ob‘ektdagi muammoni mustaqil holda o‘ylashga rag‘batlantirishi, muammoli vaziyatni yaratib, ularning diqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, ta’limdagi loqaydlikni bartaraf etishi, o‘quvchilarga o‘zlaricha

¹² Ибрагимова М., Шерматова Х. Таълим жараёнида фаол усуллarni қўллаш. Узлуксиз таълим.- Т.: 2005. 5-сон, - 16-17 б.

¹³ Мирзаахмедов М.А., Нарманов А.Ж. Узлуксиз таълим тизимида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Узлуксиз таълим.- 2004. 5-сон.- 48-бет

mulohaza yuritib zarur xulosalar va umumlashmalar chiqarishda yordam berishi, ularni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o'rgatishi, ya'ni u o'z tarbiyalanuvchilarini olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy faktlar va hodisalarga taqqoslash, shu asosda to'g'ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirishi kerak. Mana shularning hammasi ta'lim jarayoniga zamonaviy mazmun baxsh etadi.

Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinayotgan zamonaviy metod va usullarning ilmiy-metodik asoslari bir qancha metodist olimlar – A.G'ulomov¹⁴, A.Ne'matov¹⁵, M.Saidov¹⁶, M.Mahmudov¹⁷, Sh.Yusupova¹⁸, T.Ziyodova¹⁹lar tomonidan tadqiq qilindi va ularning tavsiyalari asosida yaratilgan darslik va qo'llanmalar, ilmiy-metodik maqolalar Respublika miqyosida ommalashtirilmoqda, o'qituvchilar tomonidan foydalanilmoqda. Shunday bo'lsa ham, ta'lim jarayoniga keng tatbiq qilinayotgan yangi innovatsion usul va metodlardan foydalanish, yangilik sifatida taqdim qilinayotgan usullarning foydalilik darajasi, samarasini aniqlash, ilmiy-nazariy qimmatini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli dars ming yillar maboynida vujudga kelgan. Ya.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida ma'naviy tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan bo'yon 3500 yil o'tdi. Shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Xullas, bugungi kunda umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishda yangi zamonaviy o'qitish usullari va metodlari qo'llash, alohida Qoraqalpog'iston maktablari sharoitini hisobga olish, aynan shu hududdagi o'qituvchilarning yangi

¹⁴ Гуломов А.К., Қобилова Б.Ш. Нутқ ўстириш машғулоти. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

¹⁵ Неъматов А. ва бошқалар. Ижодий матн устида ишлаш. –Т.: 1997. –Б. 7.

¹⁶ Саидов М. Ўрта мактабларнинг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. –Т.: 2000. Б. 45.

¹⁷ Маҳмудов М. Болаларнинг ўқув мақсадлари –таълимни илмий лойиҳалаш омили // Халқ таълими. -2002. - 5. –Б. 49.

¹⁸ Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. Дисс. –Т.: 1998. –Б. 48.

¹⁹ Зийдова Т. Матн яратиш технологияси. –Т.: Фан, 2007, 41-б.

texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilish bo'yicha ilg'or tajribalarini aniqlash, mohir pedagog o'qituvchilarning tajribalarini amaliyotga joriy qilish va umumlashtirish hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bilan bog'liq amalga oshiriladigan, zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy talablardan biridir.

1.2. Shekspir ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari.

Mustaqillikka erishgan xalqimizning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida yangi davr boshlandi, ma'naviyat masalalariga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Yangi O'zbekiston yo'nalishida ma'naviyat doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi. Ana shu talablar adabiy-badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur qilib qo'ydi. Ular hozirgi she'riyatimizda yorqin ko'rinib, tobora kengayib bormoqda. Shu bois bizda yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tariximiz va ajdodlar yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida, el-yurt manfaatlarini yo'lida mehnat qiladigan mehnatsevar, millatparvar, fidoyi qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'quvchi yoshlar qalbida yuksak insoniy tuyg'ular chuqur ildiz otishi jamiyat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'naviyat qudratli kuchga aylangan jamiyatda iqtisodiy taraqqiyot ham tezlashadi.

Insonni ezgu amallarga yetaklaydigan ma'naviy sifatlarni shakllantirishda badiiy adabiyot ulkan imkoniyatlarga egadir. Negaki, badiiy adabiyot odamning nafaqat tafakkuri, balki ruhiyat va sezgilar olamiga ham ta'sir ko'rsatish orqali yoshlarda o'tkir intellekt va ezgu ma'naviy sifatlarni qaror topdirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, jahon adabiyotining yirik vakili Uilyam Shekspir o'z ijodi bilan jahon xalqlari tafakkur tarzi va hissiyot olamiga kuchli ta'sir ko'rsatgan san'atkordir. Uning asarlaridagi beqiyos badiiy qudrat, o'ziga xoslik va samimiyat turli yoshdagi odamlarga kuchli ta'sir qilish va ularda ezgu axloqiy sifatlarni qaror topdirish xususiyatiga egadir. Shuning uchun ham adibning asarlari majburiy ta'limning 9-sinf "Jahon adabiyoti" bo'limida o'qitiladi.

Uilyam Shekspir asarlari o'rta maktabda saboq olayotgan yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, ularda ezgu axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatiga egadir. Faqat ijodkor asarlaridan har bir bosqichdagi o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq keladiganlarini tanlash hamda ularni muayyan bosqichdagi o'quvchilarning intellektual va ruhiy imkoniyatlariga eng mos usullarda o'qita bilish kerak.

Uilyam Shekspir kabi iste'dodli so'z san'atkorlari asarlaridan namunalarni tahlil qilish malakasini tarkib toptirish asosida o'quvchilar ma'naviyatining yuksalishiga, ularda yuksak insoniy tuyg'ular shakllanishiga erishiladi.

Bugungi adabiy ta'limga muayyan shoir yoki yozuvchi ijodi xususidagi rang-barang qarashlarni, turlicha talqinu tahlillarni olib kirish, binobarin, o'quvchilarni ham bir asar tevaragida turfa fikr-mulohazalarga tayanib tahlil, bahs-munozara qilishga o'rgatish ta'limda plyuralizm – fikrlar xilma-xilligini ta'minlash imkonini beradi. Uilyam Shekspirning inson qadr-qimmatini mavzuini yorituvchi asarlari tahlili yordamida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllashtirishga erishish mumkin. Adabiy ta'limda mazkur masalalarni yoritish uchun Shekspir hayoti va ijodiga qisqacha nazar solishni ma'qul ko'rdik.

Ulug' dramaturg, shoir va aktyorning tarjimai holiga doir ma'lumotlar juda kam saqlangan bo'lib, uning hayoti va adabiy faoliyatiga oid materiallar zamondoshlarining bergan baholari hamda xotiralari asosida yig'ilgan va to'ldirilgan.

Uilyam Shekspir 1564 yilning 23 aprelida Markaziy Angliyaning Stretford shaharchasida tug'ildi. U oiladagi 8 farzandning uchinchi edi. Otasi Jon Shekspir charm qo'lqop tayyorlovchi hunarmand bo'lib, savdo bilan ham shug'ullanadi, katta obro' orttirib, shahar kengashiga saylanadi va shahar boshlig'i vazifasida ishlaydi.

Stretford Evon daryosi sohilida joylashgan bo'lib, Birmingemdan Oksford va Londonga boruvchilar bu shaharchaga tushib o'tar edilar. Stretfordga aktyorlar truppasi ham kelib, turli tomoshalar ko'rsatib turar edi, bu voqea shahar madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shekspirning teatrga qiziqishi ham shu

yerda uygʻonadi. Uilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi» da oʻqiydi. U yerda asosan lotin tili oʻrgatilib, sxolastik logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilar edi. U ayniqsa Rim shoiri Ovidiy asarlarini qiziqib mutola qiladi, lekin koʻp oʻqiy olmaydi. Otasining ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kambagʻallashib qolgach, hali 16 yoshga toʻlmagan Uilyam oʻqishni tashlab ishga kiradi. 18 yoshida u Anna Xetuey degan fermer qiziga uylanib, Syuzanna ismli qiz, Yudef va Hamlet ismli oʻgʻillar koʻradi.

Stretford Shekspirning katta talab va ehtiyojlarini qondira olmasdi. U 1587 yilda Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval suflyor yordamchisi, soʻnga aktyor, keyinroq rejissyor, hatto teatrnı boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham maʼlum.

Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa avtorlarning pesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi («Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi», «Har narsaning meʼyori bor»). Shu bilan birga, uning oʻzi ham qalam tebrata boshlaydi va tez vaqt ichida u dramaturg sifatida nom chiqaradi.

Aktyorlar orasidan chiqib katta obroʻ orttira boshlagan bu yangi dramaturgni ayrim yozuvchilar koʻrolmaydilar. Masalan, Shekspirning zamondoshi dramaturg Robert Grin uni past tabaqadan chiqib, bizning patlarimizga oʻralib olgan «qargʻa», oʻzini «sahnani birdan-bir larzaga keltiruvchiman» deb tasavvur qiladigan «ustabilarmon» kishi deb kinoya qiladi. Shekspirning dramaturgiya sohasidagi ijodi koʻp qirrali va taʼsirchan edi. Shu sababli uning xasadgoʻylari koʻp boʻlishi tabiiy edi.

Shekspir 90-yillarning boshida teatr shinavandalari boʻlmish aristokratlar toʻgaragi va graf Sautgempton bilan yaqinlashadi va «sanʼat homiysi» yosh grafga oʻzining ikki poemasi «Venera va Adonis» hamda «Lukresiya»ni bagʻishlaydi.

Shekspir 1599 yilda boshqa koʻp teatrdoshlari bilan birga yangi ochilgan «Globus» teatriga ishga oʻtadi va u yerda paychi boʻlib xizmat qiladi. Bu davrda «Globus» teatriga Jeyms Berbej, Uilyam Kemp kabi talantli aktyorlar yigʻilgan boʻlib, teatrning obroʻyi baland edi. Bu esa teatrning iqtisodiy jihatdan oʻzini

o'nglab olishiga imkon berdi. Natijada Shekspirning ham moddiy ahvoli yaxshilana boshladi. Shekspir ijodining eng gullagan davri uning o'sha teatrda ishlagan yillariga to'g'ri keladi.

Ulug' dramaturg 1612 yilda Londondan o'z tug'ilgan shahri Stretfordga ko'chib ketadi va bundan so'ng butunlay ijod bilan shug'ullanmaydi. Yakob I hukmronligi davrida feodal reaksiyasining kuchayib, teatrlarning mutloq saroy ta'siriga tushib qolishi, aristokratik ruhdagi dramaturgiya ustunlik qilib, realistik xalqchil repertuarlarning siqib chiqarilishi Shekspirning yozmay qo'yishiga sabab bo'lgan, deb tushunish to'la asoslidir. Shekspirning tarjimai holiga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi natijasida uning avtorligiga shubha soladigan soxta farazlar kelib chiqadi. Ulug' yozuvchining ijodini o'z zamonasi va undan keyingi yillarda yashagan kishilar inkor qilmaydilar. Masalan, dramaturg va shoir Ben Jonson Shekspir xotirasiga bag'ishlangan she'rlarda uni «o'z asrining yuragi» deb baholaydi. Hamlet rolini ijro etgan, XVII asrning oxirlarida yozuvchining ijodiga doir materiallar to'plagan mashhur aktyor Tomas Betterton, shuningdek, Shekspirning birinchi biografi Nikolas Rou ham uning mualifligiga shubha qilmaydilar. Faqat XVIII asr oxiridagina g'arbda "Shekspirchilik masalasi" deb atalgan masala kelib chiqadi. 1772 yilda Gerbert Lorens Shekspir nomidagi pesalarni filosof Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi. 1857 yilda amerikalik Deliya Bekln Shekspir haqida kitob yozib, unda Shekspir qalamiga mansub bo'lgan asarlarni filosof Frensis Bekon boshliq maxfiy to'garak a'zolari ijod qilgan, chunki Shekspir pesalarida go'yo aniq individual uslub yo'q deb isbotlashga urinadi.

Karl Bleybtrey (1907) ulug' dramaturgning pesalarini graf Retlendniki deb ataydi. Belgiyalik jurnalist Damblen (1918) "Retlend nazariyasi" ni quvvatlab chiqadi. Shekspir asarlarini feodal zodagonlarning turli vakillari (faylasuf Bekon, graf Retlend, graf Derbi) tomonidan yaratilgan, degan fikrlar mutloq asossizdir, deydi. Shekspirni quyi tabaqadan kelib chiqqan, universitet ta'limini olmagan, shuning uchun u shunday asarlar yozishi mumkin emas, deb qarash oddiy kishilar orasidan yetishgan ulug' kishilarning ijodiy kuchiga ishonmaslik va titanlar

yaratgan Uygʻonish davrining haqiqiy mohiyatini tushunmaslik oqibatidir. Shekspir Londonda antik sanʼat va adabiyot bilan tanishadi, zamonasi adabiy muhitiga kirib, chuqur mutola qilish yoʻli bilan oʻz bilim doirasini kengaytiradi. Turmushning oʻzi uning uchun bilim manbai boʻladi.

Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga boʻlinadi. Hammasi boʻlib u ikki poema, 154 sonet va 37 pesa yaratadi. Ijodining birinchi davrida (1590-1601) Shekspir poema va sonetlaridan tashqari, uygʻonish davrining xarakterini aks ettirgan xushchaqchaq komediyalar: “Adashishlar komediyasi”, “Qiyiq qizning quyilishi”, “Veronalik ikki yigit”, “Sevgining behuda kuchayishi”, “Yoz kechasidagi tush”, “Vindzorlik masxaraboz ayollar”, “Yoʻq narsadan bir talay gʻavgʻo”, “Bu sizga yoqadimi?”, “Oʻn ikkinchi kecha”; “Angliyaning oʻtmishidan olingan xronikalar” deb nomlangan tarixiy dramalar: “Genrix VI”, “Richard III”, “Genrix IV”, “Qirol Ioann”, “Richard II”, “Genrix V”; nihoyat, “Romeo va Juletta” hamda “Yuliy sezar” nomli ikki mashhur tragediyasini yozdi.

Ijodining ikkinchi davri (1601-1608) Shekspir dramatik faoliyatining yanada rivojlanishi bilan ajralib turadi. Oʻrta asr feodal zulmiga va boshqa har qanday yovuzliklarga qarshi kurash ruhi bilan yongan yozuvchi rivojlanib borayotgan kapitalistik sharoit ham kishilarning ezgu orzu-umidlarini roʻyobga chiqarmayotganini koʻradi va tugʻilib kelayotgan burjua munosabatlarga tanqidiy qaray boshlaydi. Bu davrda yozuvchi buyuk gumanistik gʻoyalar va davr fojialarini aks ettirgan «Hamlet», «Qirol Lir», «Otello», «Makbet», «Antoni va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» tragediyalarini yaratdi.

Ijodining uchinchi davrida (1608-1612) dramaturg tragikomediyalar «Simbelin», «Qishki ertak», «Boʻron» asarlarini ijod qiladi. Bu davrdagi ijodining muhim xususiyati shundaki, Shekspir turmush ziddiyatlarini optimistik ruhda yechishga intilib, koʻproq romantik ertak syujetlariga murojaat qiladi. Masalan, «Boʻron» asari insonning kelajak taqdiriga ishonch bilan qaragan yozuvchining ajoyib hayollari mevasidir.

Shekspirning adabiy faoliyati «Venera va Adonis», «Lukresiya» poemalari va qator sonetlar yozishdan boshlangan. Har ikki poemaning syujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan bo'lsada, ularda uyg'onish davri ruhi aks etgan.

Bu ikki poemadan tashqari, Shekspir 1609 yilda 154 sonetdan iborat to'plamni nashr ettirdi. Uning ilk sonetlarida Italiya Uyg'onish davri poeziyasining dastlabki vakili Petrarkaning ta'siri ko'rinsa ham, lekin Shekspir ijodiy evolyusiyasi davomida bu janrni shartli belgilari doirasini yorib chiqib, sonetlarini yangi mazmun bilan boyitdi. Shekspir sonetlari zamondosh Renessans shoirlari Sidney va Spenser sonetlaridan farq qiladi. Chunki ularning lirik ijodida umumlashtiruvchi holat yo'q edi. Shekspirning lirik qahramoni o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi takrorlanmas hayotiy obrazlardir. Shoir Uyg'onish davri kishilarining asosiy xususiyatlari sevgi, do'stlik, ularning xushchaqchaq hayotga intilishlari, fikr va his-tuyg'ularini aks ettiradi.

Shekspirning o'ziga xos ifoda usullari bor. Shoir o'z she'rlarida simvollardan ham foydalanadi. U yoshlikni bahor yoki tongga o'xshatadi, go'zallik ajoyib gullarga taqqoslanadi, odamning qaytishi kuzga, qarishi qishga o'xshatiladi, yigitning chiroyida yoz latofati mujassamlanadi.

Shekspirning haqiqiy insoniy his-tuyg'ulari ifodalangan sonetlari ingliz adabiyotida lirik poeziyaning yangi gumanistik rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

XVI asr oxirlarida Angliyada absolyut hokimiyatning tushkunlikka uchrashi tasodifiy hol emas edi, chunki u jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining bundan so'nggi rivojlanishiga to'siq bo'lib qoladi, qirollik hukumati bilan parlament o'rtasida ziddiyatlar vujudga keladi. XVII asrning boshlarida yangi Yelizavetaning hukmronligi tugab, Yakob Styuart taxtga chiqqan (1603) va feodal reaksiyaga kuchaygan qirol bilan burjuaziya o'rtasidagi qarama-qarshilik jiddiy tus oladi. Bu yillarda keng xalq ommasi dehqon va hunarmandlarning ahvoli yana ham og'irlashadi.

Shekspir ijodida yuz bergan katta o'zgarishlarni ifodalagan yirik asari "Hamlet" (1601) tragediyasidir. Tragediyaning bosh qahramoni Daniya qirolining o'g'li shahzoda Hamletdir. Otasining munofiqona o'ldirilishidan ko'p o'tmay,

onasining motam kuni «oyoqqa kiygan boshmog'i» to'zimasidanoq otasi taxtini egallagan Klavdiyga tegib ketishi Hamletni cheksiz azob girdobiga tashlaydi. Uning ko'ziga butun dunyo «to'ng, bema'ni va to'mtoq» ko'rinadi.

Ijtimoiy turmushni dinamik ravishda tasvirlashga asos solib, tragediya janrini yangi bosqichga ko'targan Shekspirning estetik qarashlari ochiq oydindir. U Hamletning nutqi orqali hamma davrda dramatik san'atning asosiy vazifasi, «tabiatning ro'parasiga oyna tutish, sharofatga ham, qabohatga ham ularning chin basharalarini ko'rsatish, tarixdagi har bir zamonning yuzini bo'yoqsiz qilib namoyon qilishdan iborat» ekanini haqqoniy ifodalab beradi. Hamlet obrazida yozuvchi inson, uning idroki, yaratuvchilik kuchi haqidagi qarashlari mujassamlashgan. Hamlet inson aqlining eskilik ustidan tantanasini aks ettirgan Uyg'onish davrining haqiqiy timsolidir.

Shekspir ijodining uchinchi davrida (1608-1612 yillar) katta o'zgarishlar yuz beradi. Yakob Ining feodal reaksiyasi kuchaygan vaqtda Uyg'onish davri gumanistik g'oyalarini amalga oshirish haqidagi illyuziya zarbaga uchraydi. Teatr o'yinlari qirollikning nazorati ostiga olindi. Endi fojiaiy, kishini hayajonga soluvchi, katta ijtimoiy-siyosiy voqealar aks ettirilgan tragediyalar emas, balki tomoshabinga yengil ta'sir etadigan tragikomik xarakterdagi pesalar yaratila boshlaydi. Lekin shunday vaqtda ham, ulug' dramaturg o'zining gumanistik g'oyalariga sodiq qoladi. Garchi asarlarning oxiri yaxshilik bilan murosa qilmasada, u teskari kuchlarning fe'l-atvorlarini qoralovchi pesalar yozishni davom ettiradi.

Shekspir ijodining shu davrdagi muhim xususiyatlari uning tragikomediyalar tipidagi «Qishki ertak», «Simbelin», «Bo'ron» pesalarida yaxshi aks etgan. Shekspir bu janrni yuzaki qabul qilgan bo'lsa ham, lekin unga chuqur insonparvarlik g'oyalarini kiritdi. Uning bu turdagi asarlarida real voqealar xayoliy ertaklar bilan qo'shilib ketadi va ularda kishining yaxshi fazilatlari yomon ehtirosalar ustidan g'alaba qozonadi.

Adabiy ta'limda o'quvchi ongiga Shekspir hayoti va uning asarlari haqidagi tayyor hukm-xulosalarni singdirishday samarasiz usullardan voz kechish zarur.

O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasini bevosita ularda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'lab olib borilishi samarali yo'l ekanligini bilishimiz zarur. Dramaturgning ijodiy qiyofasini o'quvchiga to'la anglatishda yaratgan asarlarini tahlil va talqin qilishdan foydalanish, dramalarining jozibasini to'la his qilishi uchun o'quvchi uni o'z qalbidan o'tkazishi, asarni qanday his qilgan va tushungan bo'lsa, shu tuyg'u-mulohazalariga tayanib fikr bildirishi uchun qulay pedagogik sharoit ta'limda lozimligi asoslandi. O'qituvchi o'quvchini ijodkorning tuyg'udosh va fikrdosh hamkoriga aylanishiga ko'maklashsa, uning ijodiy qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirishga erishadi. Ijodkor qalbini, ruhiyatini, hayotga va inson shaxsiga munosabati mohiyatini anglash orqali o'quvchi shu yozuvchi yoki shoirning o'ziga xos badiiy tafakkur tarzini, yaratgan badiiy olami mazmunini tushuna oladi.

Istiqlol davrining dastlabki yillaridan boshlab adabiy ta'limni milliy o'zanlariga qaytarish masalasi milliy ta'lim tizimini yaratish, uzluksiz ta'limni isloh qilish kabi jiddiy muammolar yechimiga qaratilgan davlat qarorlari, hujjatlar va qonunlar asosida hal qilina boshlandi.

Uzluksiz ta'limning yangi tizimi yuzaga keltirildi, har bir ta'lim bosqichini zarur o'quv va metodik adabiyotlar, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Adabiyot o'qitish metodikasi fanining yangi davri milliy mustaqillik sharoitidagi maqsad va vazifalari, ob'ekti, yechimtalab muammolari mohiyatan o'zgardi. Xususan, ijtimoiy-ma'naviy hayotga yangicha nazar bilan qarash, ma'naviy merosimizga hurmat bilan, milliy istiqlol g'oyasiga tayanib munosabatda bo'lish, adabiy hodisalarga ham, ijodkor yaratgan adabiy asarlarga ham sog'lom munosabatni qaror toptirish, ularni yangi asoslarga tayanib baholash, badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishda estetik tamoyillarga tayanish ustuvor yo'nalishni tashkil etdi. Istiqlol davrida ayni shu yo'nalishda o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bir guruh o'zbek metodist olimlari qatorida yangilangan pedagogik tafakkur mazmun-mohiyati, nazariy asoslari, asosiy tamoyillari qator o'quv metodik va ilmiy risolalari orqali taniqli olim Q.Yo'ldoshevning pedagogika

fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya ishi va boshqa ilmiy asarlarida yaratildi. Uning 9-sinflar uchun «O‘zbek adabiyoti» Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekovlar bilan hamkorlikda nashr ettirgan darsligi mazmun-mohiyati jihatidan butunlay yangi yo‘nalishdagi darslikdir. Shuningdek, uning “Yangilangan pedagogik tafakkur va adabiy ta’limning ilmiy-nazariy asoslari” nomli ilmiy-metodik risolasi respublikamiz adabiy ta’limini yangi mulohazalar, ilmiy dalillangan ilg‘or qarashlar bilan boyitdi. Adabiy ta’limni yangilangan pedagogik tafakkur mohiyatiga yaqinlashtirdi va uning yangi yo‘nalishdagi ravnaqiga muhim hissa qo‘shdi.

Metodist olimlardan S.Matchonov, M.Mirqosimova, S.Nishonova, Q.Husanboeva, O.Madaev, U.Dolimov, R.Niyozmetovalar ham o‘z ilmiy faoliyatlari orqali respublika adabiy ta’limini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shdilar. Jahon va hamdo‘stlik mamlakatlari adabiyot o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya sohalaridagi yangi ilmiy qarashlar, ilg‘or ta’lim usullari, fan yutuqlaridan foydalanib, o‘zbek metodikasi fanini yuksaltirish yo‘lida ish olib bordilar.

Ta’lim-tarbiya tizimi ham yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillariga moslashib, o‘zgarishga yuz tutdi. Mamlakatimizda mustaqil fikrli, bilimli, ijodkor va yaratuvchi shaxsni shakllantirishga, uning ma’naviyatini yuksaltirishga, aqliy hamda ruhiy kamolotini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratildi. Zotan, davlat va jamiyatni izlanuvchan, yaratuvchan, tashabbuskor, tafakkuri yuksak shaxslargina rivojlantira oladi.

Darhaqiqat, mustaqillik davri adabiy ta’limining yetakchi maqsadlarini o‘quvchi ma’naviyatini yuksaltirish, ijodkorning hayoti haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish vositasida yoshlarda ham yaratuvchilik, bunyodkorlik xislatlarini tarkib toptirish, ularning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta’sirida o‘quvchilarning ilmga, san’at va adabiyotga mehrini, hurmatini o‘stirish, muayyan ijodkor ruhiyatini his qilish vositasida o‘quvchilarni o‘zga odamlar qalbini anglashga o‘rgatish, o‘zgalar dardini tuyish, insonlarni ularning qalbi orqali tanish va anglashga yo‘llash kabilar tashkil etdi. Adabiy asar

va uning yaratuvchisini o'quvchi o'z ko'nglidagi tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, qalbi orqali tanishi va anglashi lozimligi yangilangan pedagogik tafakkur tamoyiliga aylandi. Chunki, ana shunday yo'l bilangina o'quvchilarning so'z san'atiga nisbatan o'ziga xos nuqtai nazarini, munosabati va muhabbatini shakllantirish mumkin.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillaridan yana biri ijodkorga yaratuvchi shaxs sifatida yondashish, ya'ni uning kimligi yoki qaerda tug'ilgani yo qaysi partiya a'zosi ekani emas, balki o'ziga xos badiiy tafakkurini, uslubi bilan mahoratini o'rganib, so'z san'atkorining ijodkor shaxs sifatida badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rnini belgilashga, yaratgan asarlari - badiiy kashfiyotining umumadabiy jarayondagi qadr-qimmatini baholashga erishish tashkil etadi.

Yangilangan pedagogik tafakkurning adabiy ta'limga taalluqli navbatdagi tamoyilini badiiy asardan quruq g'oya izlamaslik yoxud asarning «g'oyaviy mazmuni»ni hikoya qilish yoki uning xuddi ertak so'zlab berganday o'qituvchi tomonidan bayon qilinishi kabi samarasiz usuldan voz kechish tashkil qiladi. Aslida o'quvchining qalbiga yetib bormagan, unga ta'sir qilmagan asarni tahlil qilishdan naf ham, natija ham yo'q. O'quvchi sezgilariga, fikrlariga ta'sir ko'rsatish uning qalbiga ta'sir ko'rsatish orqali yuz beradi. O'quvchining qalbi zabt etilgan taqdirdagina uning tafakkurini harakatga keltirib, fikr - mulohazasini tinglash imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois, istiqlol davri adabiy ta'limida badiiy jihatdan barkamol asarlarni o'rganish va tahlil qilish, maktab adabiy ta'limiga estetik tahlilni olib kirish ustuvor yo'nalishni tashkil qildi. Bu borada pedagogika fanlari doktori M.Mirqosimovanning «Adabiy tahlil metodikasi», «Badiiy tahlil usullari», «O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish» kabi metodik qo'llanmalarining yaratilishi fan ravnaqiga xizmat qilganligini ta'kidlash joiz. Badiiy tahlil usullari yordamida o'quvchilarni she'riy asarlarni yod o'qishga, umuman, badiiy asar matni ustida ishlashga o'rgatish orqali asarning badiiy qudratini namoyon qiluvchi xususiyatlarini yoritish yetakchi tendensiyaga aylandi.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillaridan yana birini adabiy ta'limga tadbiq etsak shunga amin bo'lamizki, badiiy asarlar orqali ijodkor inson taqdiri,

hayot hodisalari xususidagi muayyan savollarni “Nega?” yo “Nima uchun?” tarzida qo‘yib, asar qahramonlarining kechinmalari, tuyg‘u yo iztiroblari yoki hayot hodisalari girdobidagi izlanish-kurashlari timsolida go‘yo bu savollar yechimini ifoda qilganday tuyuladi. O‘quvchilar ayni shu savollarga mustaqil izlanish orqali badiiy asarni o‘zlashtirish, tahlil qilish natijasida javob topishga urinsalargina, ijodkorning bezovta ruhini his qilsalargina natija bo‘lishi mumkin. O‘quvchining mustaqil ijodiy faoliyati to‘g‘ri tashkil qilinsa, ijodkor ruhiyatini his qilib, badiiy asar markazidagi savollarga javob topishga xohish-istak uyg‘onadi. Bora-bora bu holatning ma’naviy ehtiyoj darajasiga yetkazilishini adabiy ta’lim vositasida amalga oshirish nazarda tutiladi. Adabiyot o‘qituvchisi bunday ijodiy faoliyatning tashkilotchisi va boshqaruvchisi rolini asta-sekinlik bilan o‘quvchilarning o‘zlariga topshiradi va ularni adabiy tahlilning old tomoniga o‘tkazishi lozimki, natijada, o‘quvchi lirik, epik, dramatik asarlar qahramoni qalbida ro‘y beradigan ruhiy jarayonlarni his qilib, tushuna boshlashi, insonni anglashga o‘rganishi kabi hamkorlikka asoslangan faoliyat yuzaga keladi. Bunday faoliyat yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillari mazmun-mohiyatiga mos tushadi.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyiliga ko‘ra o‘quvchilarga nazariy bilimlar berishni bevosita adabiy tahlil jarayonida amalga oshirishgina samarali natija beradi.

9-sinf “Adabiyot” darsligida Shekspir hayot yo‘li haqida qisqacha ma’lumot ham berilgan. Lekin o‘qituvchi darslikda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni bolalarga o‘rgatish uchun vaqt sarflamasligi kerak. Chunki to‘qqizinchi sinfda o‘qiyotgan o‘smir uchun shoir hayotiga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirish shunchaki muhim emas. Bu ma’lumotlar bilan o‘quvchilar mustaqil ravishda tanishishi va ularni o‘zlashtirib olishi mumkin, lekin bu topshiriq majburiy emas, balki ixtiyoriy bo‘lishi lozim.

Shekspirning darslikda berilgan “Otella” yoki “Hamlet” tragediyalar 5 varaqlik matnni o‘qish va o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi birinchi darsning 15-20 daqiqasini sariflaydi. Agar muallim asarni ifodali o‘qib bersa, uning ta’sir kuchi

ortadi va tahlil qilish osonlashadi. Tragediyalarni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga darslikdan asar matnining murakkab o‘rinlarini belgilab borishni tayinlagani ma’qul. O‘qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida bunday o‘rinlarni o‘zi uchun ajratib qo‘ygan bo‘ladi. Qiyin so‘zlarni o‘quvchilarning o‘zlari asar bilan tanishish mobaynida belgilab borishi ularni matn ustida faol ishlashga undaydi. Jumladan, tragediyadagi quyidagi so‘zlar ajratib ko‘rsatilishi mumkin:

“V- SAHNA”

Maydonchaniq uzoq bir chekkasi. Arvoh va Hamlet kiradilar.

Hamlet: *Hey, qayoqqa boshlayapsan? Boshqa bormayman.*

Arvoh: *Mendan ko‘zing uzma.*

Hamlet: *Ko‘zim senda.*

Arvoh: *Keldi payt*

Ki, hademay men o‘zimni otishim kerak

Jahannamning oloviga.

Hamlet: *Beshora arvoh!*

Arvoh: *Qo‘y, achinma menga, lekin aytganlarimni*

Jon qulog‘ing bilan tingla...

Hammasini eshit avval...

Hamlet: *Nima deding?*

Arvoh: *Men otangning arvohidirman,*

Kechalari hayron-sarson kezib yurmoqqa,

Kunduzlari jahannamda yonmoqqa mahkum.

Gunohlarim yonib ado bo‘lmaguncha to

Davom etar bu mazallat, bu qora savdo.

Zindonimning sirlarini ayta olmayman,

Ammo kichik bir hikoya so‘zlasammi, bas,

Joning halqumingga kelib, qotar qonlaring,

Yulduzlar o‘z mehvaridan otilgan kabi,

Ko‘zlaring naq xonasidan chiqar shu nafas.

Soching tikka turib, unda har bitta mo‘ying

*Quturgan jayraning o'tkir nayzalariday,
Tikkayardi, xuddi sachrab otilmoqqa shay.
...Ammo, eshit, eshitib ol, eshitgil, evoh,
Sen otangni chindan sevar bo'lsang mabodo...*

Hamlet: *Yo Rabbii!*

Arvoh: *Shum qotillikning qasosini ol.*

Hamlet: *Qotillikning?*

Arvoh: *Ha, qotillik o'zi – qabohat,*

Ammo mash'um qabohatning qabohati bu!

Hamlet: *So'zla, toki men shu zamon chiqazib qanot,*

Arvoh va Hamlet suhbatidaga inson hayotining nuqtalari bo'lmish jannat va jahannam haqida berilgan qo'shimcha ma'lumotlar o'quvchilar ko'nglida eng noyob tuyg'ularni uyg'otadi. Lekin o'qituvchi jannat va jahannam to'g'risidagi ma'lumotnoma emas, balki insonning imon va e'tiqodi, insoniy g'ururi samimiy aks ettirilgan badiiy asar ekanligini nazardan qochirmasligi zarur.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyili ijodkorning hayoti bilan ijodini bir-biridan ajratmagan holda o'rganish hamda talqin va tahlil qilishni nazarda tutadi. Ayniqsa, Uilyam Shekspir singari shaxsi bilan iste'dodi va ijodi muayyan mushtaraklikka ega ijodkorning ijodiy, ham insoniy qiyofasini o'quvchilar to'la tasavvur qilsalargina u yaratgan asarlarni chuqur tahlil qilishga erisha oladilar. Natijada ijodkorning ijtimoiy maslagi mohiyati ijodida to'la aks etganligiga ishonch hosil qiladilar. Masalan, Uilyam Shekspirning "Otella" fojiasini avval ifodali o'qish, so'ng undagi tuyg'ular ifodasini tahlil qilish mumkin. Dramaturgning bezovta qalb tug'yonlarini his qilgan o'quvchida ham pokiza tuyg'ular nish uradi. Nozik va serma'no tafakkurning shiddatli ohangi o'quvchini hayajonga soladi, loqayd qoldirmaydi.

Demak, badiiy barkamol asarlarni o'rganish vositasida o'quvchining nafaqat go'zallik haqidagi tasavvurlari, his-tuyg'ulari boyidi, balki u odamlarga, hayotga, o'z-o'ziga o'tkir nigoh bilan qarashga o'rganadi, loqaydlik va fikrsizlik, befarqlikdan forig' bo'lib boradi. Ayni loqaydlik va fikrsizlik, befarqlik xildagi

illatlar inson va jamiyatni tanazzulga yetaklovchi xatardir. Demak, yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillari ijodkor shaxsi va ijodini o'rganish orqali o'quvchilarni yaratuvchi, faol, mustaqil fikrli, atrofga jiddiy nigoh-la qarovchi dardkash, izlanuvchan shaxs sifatida shakllantirishni taqazo etadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillarining adabiy ta'limga tatbiq etilishi natijasida ta'lim maqsadlari ham tubdan o'zgardi. Bilim berish, zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda takomillashtirib borish bilan birga o'quvchilarda badiiy so'zdan zavqlanish xususiyatini tarbiyalash, ularning estetik didini o'stirish, mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, kommunikativ savodxonligiga erishish, kitobxonlik darajasini muntazam yuksaltirib borish natijasida badiiy kitob o'qishni ma'naviy ehtiyojga aylantirish, so'z sehrini his qilishga erishish shular jumlasidandir. Zero, adabiyotni tushunish, his etish natijasidagina inson bolasida go'zallikka tashnalik, ezgulikka intilish, uni qadrlash tuyg'usi tarkib topadi. Bunday odamlar jamiyat uchun ham kerakli odamga aylanadi.

“Adabiyot ta'limi o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi”,²⁰-deyladi “Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dastur. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9 sinf)”da.

Istiqlol davrida yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanib yaratilgan o'quv dasturi va darsliklarda ham ayni shu vazifalar o'z ifodasini topgan. Bugungi kunda har bir dars mashg'uloti o'qituvchining ijodkorlik qobiliyati asosida tashkil qilinishini, retseptiv yondashuvlar o'rnini noan'anaviy ta'lim usullari egallab borishi yetakchi o'rinni egallashida namoyon bo'lishini anglatadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ijodiy muloqot yoki bahs-munozara asosida tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi. O'qituvchining savol beruvchi va o'quvchining darslikdagi

²⁰ Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастур. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5-9 синф). - Т.: 2010. 8-бет

tayyor fikr–mulohazalarni yodaki aytib beruvchi «hamsuhbat» lik rolikdan voz kechildi. Endi o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ayni o‘quv materialini ijodiy o‘rganadi, o‘zlashtiradi va shaxsiy kuzatishlariga tayanib, jonli muloqotga kirishadi. Adabiy asarlarni o‘rganishda ham xilma-xil tahlil usullariga murojaat qilish tabiiy holga aylanib boradi. Shu bois, istiqlol davri adabiy ta’limi muammoli ta’lim metodiga tez-tez murojaat qilish, bahs, munozara, seminar dars, konferensiya dars, yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga sayohat darsi singari dars shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Zero, ana shunday darslarning samaradorligi yuksakli metodist olimlar tomonidan ham, ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

Demak, istiqlol davri adabiy ta’limi mazmunini yanada takomillashtirish uchun tajribalardan o‘tib, o‘z samaradorligini aniq namoyon qilgan ta’lim metodlari bilan ilg‘or usullarining yangi imkoniyatlarini ochish talab etiladi.

II BOB. ADABIY TA'LIMDA SHEKSPIR IJODIY MEROSINI

O'QITISHDA TAHLIL VA TALQIN USULLARI

2.1. Adabiy ta'lim jarayonida Shekspir ijodini o'rgatish usullari muammosi tadqiqi

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimi o'rgatish usullarining boy tajribasiga ega. Ta'limda usullar to'g'ri tanlanar ekan, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'rgatish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.


O'rgatish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining xarakterini, o'qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'rgatish usullari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Demak, o'rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro birgalikdagi faoliyatini ko'zda tutadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining turi, usuli o'rgatiladigan ma'lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

O'qitishning zamonaviy usullari hozirgi kunda pedagogika fani va amaliyotida alohida dolzarblik kasb etib bormoqda. Ta'lim jarayoniga yangi g'oyalarning kirib kelishi pedagogik innovatsiyani anglatadi. Demak, pedagogik innovatsiyalashuv ta'lim jarayonining yangi metodik bilimlar bilan to'xtovsiz boyitilishini, ta'limga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darajasida bajarilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlash bo'yicha keng imkoniyatlarga egadir.

Pedagogik jarayon sifatida adabiy ta'lim to'laqonli bir tizim deb qaraladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi unsurlar quyidagilardir: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi - o'qituvchi va bilim oluvchi - o'quvchi, ta'lim tamoyillari, ta'lim mazmuni, metodi, shakli, vositalari, nazorat va baholash mexanizmlari. Adabiy ta'lim zamonaviy usullar asosida tashkil etilganda, uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishmaslik ehtimolini yuzaga keltiradi. Zamonaviy usullar asosidagi tashkil etilgan ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilmasini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin.

1-shakl



Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda. Pedagogika

fani O'zbekistonda shaxs manfaati ustuvorligini e'tirof qilgan holda erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini bir butun o'rganadi. Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi. Bugungi kunda adabiy ta'lim amaliyoti o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi "Guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Burchaklar usuli", "Rolli o'yin" kabi bir qancha interfaol usullar bilan boyidi.

O'qitishning noan'anaviy shakllaridan bo'lmish hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metoddir. Hamkorlikdagi ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlariga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga "a'lo", "yaxshi" va "qoniqarli" o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon "kuchlilar" va "kuchsizlar" guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

Kichik guruhlarda ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- guruhlariga aniq ko'rsatmalar berish;
- ishtirokchilar topshiriqlarni to'liq bajarishi uchun yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
- guruhlarning qoidani buzmaganda ishlashini ta'minlash;
- guruhda kechayotgan har bir jarayonni baholab borish.

Ta'limning interfaol usullaridan biri bu "fikriy hujum" sanaladi. Fikriy hujum dars o'tish jarayonida guruhga biror bir muammoni hal etish uchun o'rta tashlash orqali mikroguruh a'zolarini mustaqil fikrlash, muammoni atroflicha mushohada etish orqali o'z nuqtai nazarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

"Tarmoqlar" metodi – o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga odatlantirish, ularning fikr doirasini kengaytirish, adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalanishga o'rgatishga qaratilgan. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik

strategiya bo'lib, u o'quvchilarning biror mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki fikrlarni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tizimlashtirishga o'rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda shu mavzu bo'yicha o'quvchilarning tasavvurlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

“Yelpig‘ich” metodi. Murakkab, ko'p tarmoqli bu usul muammo xarakteridagi mavzularni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha birato'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida muhokama etiladi. Masalan, asar qahramonining yutug'i va muvaffaqiyatsizliklari, fazilat va kamchiliklari, biror bir voqea-hodisaning sababi va oqibatlari belgilanadi. Bu interfaol usul o'quvchida tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va o'z g'oyalari, fikrlarini yozma hamda og'zaki shakllarda ixcham bayon etish, himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yelpig‘ich” usuli umumiy mavzuning ayrim jihatlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlar va ulardagi har bir ishtirokchining faol ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu metod asarni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin.

1. Asar bilan tanishish bosqichida o'quvchilar bilimini faollashtirish, ya'ni yodga solish, foydalaniladigan holatga keltirish uchun;
2. Mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur anglab yetish maqsadida;
3. Yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish niyatida.

Ushbu usulning “Yelpig‘ich” deb nomlanishiga sabab shuki, bu metodni ishlatish jarayoni chizma shaklda ifodalansa, yelpig‘ichga o'xshab ketadi. 9-sinfda Shekspirning “Hamlet” fojiasini mustahkamlash qismida o'qituvchi shu metoddan foydalanib o'quvchilarning fikrlarini yozma shaklda ixcham bayon etish topshirig'ini beradi. Topshiriq ikki turda bajariladi. Darslikda berilgan matnga

tayangan holda “Hamletdan o‘rganganlarim” (yaxshi fazilatlar), “Hamletga maslahatlarim” kabi ikki yo‘nalishdagi faoliyat amalga oshiriladi.

“Hamletdan o‘rganganlarim” (yaxshi fazilatlar) va “Hamletga maslahatlarim” topshiriqlari o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchi rahbarligida “Yelpig‘ich” usulida mustaqil tarzda bajarilsa, quyidagi shakldagi holat yuzaga kelganligini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy usullar adabiy ta‘limda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro tenglikka asoslangan faol muloqot, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning yetakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o‘rganilayotgan mavzu yoki o‘quv materiali bo‘yicha mustaqil fikrlash, o‘z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida asoslash va ma‘lum xulosalarga kelish orqali ta‘lim maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari zamonaviy interfaol metodlar bir qator didaktik imkoniyatlarga ega:

- ✓ o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘quvchi, har bir o‘quvchi va barcha o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ta‘lim hamkorligini yuzaga keltiradi;
- ✓ o‘quvchilarning o‘qituvchi bilan o‘zaro samarali muloqot qilishlariga erishiladi;
- ✓ o‘quvchilarda o‘rganiladigan asar yuzasidan mustaqil fikrlash, muammo qo‘yish, yechimini izlash, qaror qabul qilish va xulosaga kelish qobiliyatini shakllantiradi;
- ✓ o‘quvchilarda mumtoz epik asarni individual tarzda qabul qilish va izohlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ko‘rinadiki, keyingi vaqtda keng tarqalayotgan zamonaviy ta‘lim usullari o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari va erkin fikrlashlarini ta‘minlashda katta samara keltiradi.

Hozirgi kunda fidoyi o‘qituvchilarning ijodiy izlanishlari orqali bir qancha zamonaviy ta‘lim usullari ishlab chiqildi. Bunday usullardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi o‘z fanini puxta bilishi, ilg‘or zamonaviy o‘qitish usullaridan yaxshi xabardor bo‘lib, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini kashf eta olishi

lozim. Shundagina o'qitish sifati ham, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Lekin darslarda shablona o'rin bo'lmasligi, yangiliklarni, yangi usullarni tinmay izlash va joriy etish lozim.

Adabiy ta'limni tashkil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari tomonidan adabiyot fani asoslarini o'zlashtirishda samaradorlikka erishish, shuningdek, ularda badiiy tafakkurni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalarning muhim o'rin tutishi amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Zero, pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni muayyan badiiy asarda ilgari surilgan g'oyalar mohiyati bo'yicha mustaqil fikr yuritish, syujetlar tizimi asosida muallif tomonidan taklif etilayotgan yechimning mazmunini tahlil etish, badiiy talqinda ifoda etilgan ijtimoiy munosabatlar jarayonida bilvosita ishtirok etish asosida mustaqil hayotga tayyorlanish imkonini beradi.

Har qanday asarning badiiy tahlili eng zamonaviy texnologiya va usullarga tayansa, shuningdek, pedagogik jarayondagi barcha qatnashchilarning to'la faolligi ta'minlansagina tegishli samara beradi.

Shu o'rinda o'quvchilarning passiv tinglovchi darajasida qolib ketmasligi, balki ularning faol, o'z nuqtayi nazar va shaxsiy fikriga ega bo'lgan kitobxon darajasiga ko'tarish zaruriyatini ta'kidlash joiz. Bu birinchi navbatda o'qituvchining kitobxonlik madaniyati bilan bog'liq. Kitobxon o'quvchilarni tarbiyalash va yana o'qituvchi shaxsi, uning shaxsiy tajribasi, uquvi, ijodkorligiga chambarchas aloqadordir. Demak o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini real hayot, ta'lim jarayonining o'zi ham taqozo etadi.

Maktab o'qituvchisi, ayniqsa, o'zbek tili va adabiyoti muallimi o'zining kelajak avlodni tarbiyalashda mas'ul ekanini yodidan chiqarmasligi kerak... O'qish va o'qitishning eng ilg'or shakllari va mazmuni, bizningcha, eng avvalo adabiyot darslarida amalga oshmog'i lozim. Buning uchun esa birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi darsda har bir mavzuni yangicha his etish quvvatiga ega bo'lmog'i, o'quvchisiga zamonaviy talablar darajasida tushuncha bermog'i lozim. Adabiyot darslarida muallim mashg'ulotdan mashg'ulotga milliy mafkura asosida ta'lim va tarbiya berishni takomillashtirib bormog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida O'qitishning ilg'or shakllari va yangi texnologiyalarini, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish asosiy masalalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. O'quvchi (talaba)larga puxta bilim berishda hozirgi kun yangiliklaridan xabardor bo'lish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darsda o'z o'rnida qo'llay olish o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir. O'qituvchi kompyuterda ma'lumotlar (bilimlar) omboridan foydalanish tartibini bilishi, bunda: maxsus kompyuter darsi ajratish, kompyuterdagi bilimlar omboridan darsning ma'lum bir qismida alohida bosqich sifatida foydalanish, o'quvchi (talaba)larning guruhli va yalpi mustaqil ishlarini tashkil etish, darsdan tashqari o'qishni uyushtirish kabi ishlarni amalga oshirishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga qo'shimcha adabiyot yoki manba bilan tanishish, ayrim adiblar haqida ma'lumot izlash, darsdan keyingi yoki sinfdan tashqari mustaqil ishlarida hamkorlikka sharoit tug'dirish, *"Internetdan. saytdagi. mavzudagi maqolani o'qib kelish"* yoki *"Ma'rifat" gazetasi* (boshqa jurnallar) *ning. ... sonida. ... mavzudagi maqolani o'rganib kelish"* mazmunida topshiriq bersa maqsadga muvofiqdir. Bu usul o'qituvchi va o'quvchida axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni o'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali talabalarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondoshuvlar esa, o'z navbatida, talabalarda ko'plab fundamental tushunchalarning nisbatan yengil va mustahkam shakllanishiga yaxshi sharoit yaratadi. A.A.Murashov ogohlantirganidek, axborot texnologiyalaridan bilib foydalanish zarur. Uning fikricha, eng ilg'or texnik vositalardan foydalanish mumkin. Lekin agar pedagogning qalbi bolalarda ezgulik uyg'ota olmas ekan, hech qanday texnika yordam berishga qodir emas. Adabiyot darslarida ta'limning texnik vositalaridan, kompyuter texnologiyasidan foydalanish masalalari S.Adilova, N.Umarova, H.Ernazarov, F.Egamberdieva va boshqa bir qator metodist olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

Axborot manbalari o'quvchilarga quyidagi ma'lumotlarni bera oladi: yangi nashrdan chiqqan badiiy asarlar; yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, uning asarlari va ularga doir annotatsiyalar; adabiy davr haqida qisqa sharh, shu davrda yashab ijod qilgan yozuvchi va shoirlar haqidagi ma'lumotlar; mumtoz asarni o'qib tushuna olishi uchun lug'at; asarga doir savol va topshiriqlar; asar yoki undan olingan parcha yuzasidan testlar; asarning til xususiyatlarini anglashga doir vazifalar.

Adabiyot o'qituvchisining maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji kutubxonachisi bilan hamkorligi axborot texnologiyalarining amal qilishida muhim o'rin tutadi.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama bilimini mustahkamlash va nutq faoliyatini o'stirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish borasida pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyati katta.

Pedagogik texnologiya bu ta'lim tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmuini tushunamiz, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi nazarda tutiladi.

Ushbu texnologiya, avvalo, ta'lim muassasalarida bola manfaati ustivorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi va quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish, ya'ni har bir o'quvchining imkoniyatiga qarab bilim berish (bu degani, uning imkoniyati, qobiliyat, iqtidor, qiziqish va xohishga muvofiqlashtirish). Bu masala o'qituvchining mahorati bilan bog'liq. Buyuk bobokalonimiz Al-Farobiy ta'biri bilan aytganda, temirchi po'latni, duradgor yog'ochni o'z san'ati uchun keragicha bilishi zarur bo'lganidek, o'qituvchi ham o'quvchilarini shunchalik bilmog'i kerak.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonini tabaqalashtirish, bolalarning o'ziga xosligini hisobga olish, ya'ni aqliy imkoniyati, qobiliyati, iqtidori va boshqalar asosida guruhlashtirib ta'lim-tarbiya berishdir.

Tabaqalashtirib o'qitishda ta'lim oluvchining imkoniyatlari, intellektual rivojlanishi darajasi hisobga olingan. Ushbu o'qitish usuli ayrim mamalakatlarda aniq maqsad sari yo'naltirilgan va turli guruh o'quvchilarining ichki

imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkil etilgan. Umumiy dastur talablari barcha o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. O'quvchi ta'limning ham ob'ekti, ham sub'ekti bo'la oladi. Bunda asosiy vazifa, mas'uliyat o'ziga tushadi. U mustaqil ravishda bilim olishga intiladi, o'qituvchi yo'lga soladi, yordamlashadi, nazorat qiladi.

4. Ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiyaning yo'nalishi zamon talabidir. Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani amalga oshirishda inovatsiya tushunchasi keng qo'llana boshladi. Bu tushuncha yangilik, ya'ni ta'lim tizimidagi o'zgarishlardir.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashhis qilish, natijalash, tuzatish, kiritish imkonlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejiladi. Pedagogik texnologiyaning tasdiqlovchanligi ishlangan model boshqa pedagoglar qo'llaganda ham xuddi o'shanday samara berishi kerakligini bildiradi. Shuni ham aytish kerakki, pedagogik texnologiya aslida insonlarni tarbiyalash vositasi sifatida azaldan qo'llanib kelinmoqda.

Demak, pedagogik texnologiya o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'lim-tarbiya jarayoni ekan. Uning qanday samara berishi o'qituvchining mahorati, san'atiga bog'liq. Bizda yangi pedagogik texnologiyani qo'llash 1977 yildan amaliyotga joriy qilina boshladi. Yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o'quvchilarga samarali bilim berish, ularni Vatanimizga munosib, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Tajriba shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quvchi-talabaning individual imkoniyatini hisobga olish zarurdir.

Agar o'quvchining iste'dod va qobiliyatlari e'tiborga olinmas ekan, har bir o'quvchidagi alohida shaxsiy fazilatlar nazarda tutilmas ekan, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ulkan yutuqlar haqida gap bo'lishi mumkin emasligi hayotiy tasdig'ini tabora ko'proq darajada topmoqda.

Demak, bugun har qanday yangi axborot texnologiyalari, yoki har qanday pedagogik texnologiyalar mohiyat e'tibori bilan bolaning intellektual jihatidan rivojlanishiga imkon bermog'i kerak. Ana shunday pedagogik texnologiyagina

e'tirof etilishi, qadrlanishi, amaliyotga keng tatbiq etish uchun tavsiya qilinishi mumkin va loyiqdir.

Xullas, yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilar faolligini oshirishda muhim omil bo'lib kelmoqda. Ularni nazariy tomondan puxta egallash, amaliyotda to'g'ri qo'llay olish ta'lim samaradorligining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2.2. Adabiy ta'limda Shekispir ijodi namunalarini o'qitishda tahlil va talqin usullari

Ijodkorning o'ziga xos uslubini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslikning, balki adabiyot o'qitish metodikasi fanining ham yetakchi muammolaridan hisoblanadi. Adabiy ta'limda tahlil va talqin usullarining o'rni, ijodkorning o'ziga xos uslubini bevosita yaratgan asarlari asosida o'rganish ham adabiyotshunoslikning, adabiyotning so'z san'ati sifatidagi mohiyatini tushunishda muhim o'rin tutadi. Chunki ijodiy individuallik san'atkor ijodining badiiyligini belgilovchi bosh mezondir. Qolaversa, adabiy jarayondagi yetakchi taraqqiyot tamoyillari individual ijod hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni choqda, yozuvchining ijodiy individualligi adabiyotdagi umumiy estetik tamoyillardan ayricha yashay olmaydi. Adabiyotning rivoji ham yorqin namoyon bo'lgan individualliklardan ajralmasdir. Adabiy ta'limda badiiy ijodning ana shu kabi xususiyatlarini yoritish muhim ta'limiy zaruriyatga aylanmoqda. Ijodkor yaratgan asarlarni o'rganish jarayonida uning ijodkor shaxs sifatidagi qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirish uchun adabiy tahlil va talqin usulidan foydalanish samarali yo'ldir. Agar adabiy tahlil vositasida matn mohiyatiga kirib borib, ma'no qatlamlarini o'rganish va so'zlar bilan ohanglarga yuklangan badiiy vazifalarni aniqlashga erishilsa, adabiy talqin usulidan foydalanib, o'quvchi ko'z o'ngida badiiy asar tarkibi (strukturasi)ni jonlantiriladi. Talqin badiiy asar haqida mantiqiy asosli, izchil mulohaza yuritishdir. Asar mohiyatini talqin qilish jarayonida uning o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Talqin qanchalik ehtirosli, jozibaga yo'g'rilgan, haroratli bo'lsa, shunchalik ta'sirchanlik kasb etadi. Adabiyot o'qituvchisining bu boradagi mahorati ta'lim mazmunini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiy talqin uch bosqichni o'z ichiga oladi: **birinchi bosqich**da o'qituvchi o'quvchi-kitobxonni adabiy asar matnini o'qishga, uning ma'no-mazmunini anglashga yo'llaydi.

Ikkinchi bosqichda o'z haroratli nutqi bilan asarning badiiy jozibasini o'quvchi yanada chuqurroq his qilishiga ko'maklashadi, hattoki badiiy asarni qalb sahnasida ijro etilayotgan jozibali tomosha darajasiga yetkazadi. Shu yo'l bilan o'qituvchi yozuvchi ruhida kechgan holat, tuyg'ularni o'quvchi qalbida qayta jonlantirishga erishadi. O'quvchini ixtiyoriy ravishda san'atkorga ruhdosh, kechinmadosh qilish adabiy talqin orqali amalga oshiriladi.

Matnga ijodkor tuyg'ularining harorati singdiriladi. Shu bois yozuvchining matndagi qalb harakatini, haroratini o'quvchining his etishi g'oyat muhim. Bu holat badiiy asarning o'ziga xos olam sifatida teran anglanishini ta'minlaydi, o'quvchida muayyan tuyg'u, fikr va munosabatni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, adabiy talqinni o'zlashtirilgan matn, his qilingan tuyg'u, o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'lgan tarkib haqida jonli mulohaza yuritishdan iborat, deyish mumkin.

Hamma gap ana shu jonli mushohadaga ega o'qituvchining talqin yuritish mahoratida. Badiiy asar mukammal o'zlashtirilgach, o'quvchi tuyg'ularida yozuvchi kechinmalari bilan uyg'unlik yuzaga keladi. Shundan keyingina asar talqinining **uchinchi bosqichiga** o'tish mumkii. Talqin maqsadli va keng miqyosli tahlil orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'quvchilarning his-tuyg'ulari, kechinmalari va mulohazalariga tayanish ayni muddaodir. Maqsadli tahlilni badiiy asardagi aniq muammo nuqtai nazaridan olib borishda o'quvchilar diqqati uning ahamiyatiga qaratiladi. Badiiy asar borki, u san'atkor ijodining mahsuli. Ijodkor esa hamisha o'ziga xos siymo, betakror shaxs, olam ichra o'z olamini yaratishga qodir kuch hisoblanadi. Badiiy asarda san'atkor ruhiyati, holati, muhit bilan o'zi orasidagi ziddiyatlar aks etadi. Mukammal, yetuk badiiy asar betakror yozuvchi dunyosining ma'lum ma'nodagi aksi: uni yuzaki o'rganish ham, chuqur sinchiklab o'zlashtirish ham mumkin. Faqat chuqur badiiy tahlil orqaligina san'at asarining estetik xususiyatlarini o'rganish imkoni tug'iladi. Asarning ana shu o'zigagina xos badiiyati adabiy talqin vositasida yoritiladi. Badiiy asar - betakror tarkib. Badiiy

asarning pishiq va mo'rt halqalari, markazi, yetakchi nuqtalari mavjudki, o'qituvchi talqinda o'quvchi diqqatini shularga qaratishi tabiiy. Tarkibiy yoki struktural tahlilda ko'p ma'no yuklatilgan nuqtalar yoritiladi. Yuzaki tahlil tarkibni buzishga olib keladi. "Soxta ijtimoiylik" avj olgan paytlarda asarning yetuk, jonli tarkib ekanligi hisobga olinmadi. Natijada, she'riy asarlardagi tarkib, yirik nasriy asarlardagi badiiy konsepsiya tahliliga yetarli e'tibor berilmadi. Adabiyotshunoslikdagi ayni kamchilik maktab adabiy ta'limida ham muayyan shaklda ko'zga tashlanib turdi.

Mustaqillik yillarida talqinning asosiy tayanchi uslub tahlili ekanligi adabiyotshunos olimlar tomonidan asoslab berildi.²¹ Uslub-o'zlik, betakrorlik, san'atkor qiyofasi, nuqtai nazarini, mahoratini ko'rsatuvchi mohiyat.²² Uslubga ega bo'lish o'z iste'dodini namoyon etishdir. Shu bois, bugungi adabiy ta'limda ijodkor hayoti va faoliyatini o'rganishdagi markaziy bo'g'inni uning o'ziga xos uslubini o'rganish tashkil etishi lozim. Adabiy tahlil va talqin esa bu jarayonda o'qituvchi tayanadigan eng samarali usullaridir.

Adabiy ta'lim jarayonida Shekspir tragediyalarini talqin va tahlil qilishning metodik jihatlariga e'tiborni tortsak, avvalo mustaqillik davrida badiiy asarlarni estetik tamoyillarga tayanib o'rganish hamda baholash bosh mezonga aylanganligini yana bir bor ta'kidlash lozimligini his qilamiz. Dramaturg va aktyor hayoti va faoliyati haqida o'quvchilarga ma'lumot berish jarayonida uning ijodiy qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish, ijodiy laboratoriyasiga olib kirib, yaratgan badiiy merosini badiiyat talablari asosida tahlilu tadqiq etish malakasini shakllantirish adabiy ta'limning bosh maqsad muddaolaridan birini tashkil etadi. Bugungi kunda adabiyot darsliklaridan o'ta ixcham va lo'nda ma'lumotlar joy olgani, o'quvchilar bu ma'lumotlar orqali ijodkor haqida umumiy tasavvurga ega bo'lib, asarlarini o'rganish jarayonida o'z tasavvurlarini mukammallashtirib borishi nazarda tutilganligini qo'llab-quvvatlash lozim. Shu bilan birga o'quvchi

²¹ Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. Методик қўлланма. 7- синф. "Ўзбек адабиёти дарслик-мажмуаси учун., Тошкент. Ўқитувчи. 1997; Рўзимуҳаммад Б. Чўлпон – тонг юлдузи демак... Тошкент. Ўқитувчи. 1997; Мирқосимова М. Ўқувчиларда таҳлил малакасини шакллантириш. Тошкент. 2000

²² Носиров У. Ижодкор шахси ва бадий услуб. Тошкент. Фан. 1987

ko'z o'ngida shoirning ijodiy qiyofasini to'la jonlantirish, ijodiy laboratoriyasiga olib kirish usullari ko'pchilikni o'ylantirmoqda. Adabiyot o'qituvchilari aksari hollarda an'anaviy yo'ldan borib, ijodkor haqida qisqa biografik ma'lumot berib, darsda ko'zda tutilgan asarlarni o'qib o'rganishga kirishadilar. Holbuki, bu yo'l bilan dastur talablariga javob berish mumkin emas. Faqat adabiy tahlil usullariga tayanibgina belgilangan maqsadlarni amalga oshirish mumkin.

Adabiy ta'limga estetik tahlilni olib kirish yo'li bilan badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish vositasida ijodkor shaxsi va qiyofasi, uslubi va mahorati haqida o'quvchida to'la tasavvur va tushunchalar hosil qilishga erishish mumkin. Bunday usullarni adabiy suhbat, munozara, seminar kabi darslarda qo'llab, o'quvchilarni badiiy asarlarni badiiyat talablari asosida o'rganishga yo'llash eng maqbul yo'ldir.

Umumta'lim maktablarining 9-sinfida Shekspir ijodini o'rganish ko'zda tutilgan. Xususan, **DTSda Shekspirning "Hamlet" tragediyasi berilgan. Maktab darsligida ham "Hamlet" tragediyasi berilgan. DTS va darslik bir-biriga mos. Lekin 9-sinf o'quv dasturining IV-choragida "Jahon adabiyoti" turkumida Shekspirning "Otello" tragediyasini 4 soat o'qitish nazarda tutilgan.** Ya'ni "Adabiyot" fani 9-sinf darsligini tuzuvchilar Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekovlar DTS talabiga moslashtirganlar. Ko'rinib turganidek, DTS, darslik va o'quv dasturida nomuvofiqlik kelib chiqmoqda. Bizningcha, bu nomuvofiqlikning yuzaga kelishi o'quv dasturini tuzuvchilar "Hamlet"ni o'qitishdan ko'ra "Otello"ni o'qitish maqsadga muvofiq ko'rgan bo'lishlari ehtimol. Nima bo'lganda ham biz DTS va o'quv dasturni muvofiqligi ta'minlanishi lozimligi tarafdorimiz.

Dars mashg'ulotiga ajratilgan 4 soat davomida o'qituvchi Shekspir hayoti va ijodi, "Hamlet" tragediyasida insoniy tuyg'ular, oila sha'ni bilan bog'liq muammolarning tig'iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi, Hamlet obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlar, Hamletning o'z-o'zi bilan ruhiy olishuvi, Hamlet va Ofeliya, Hamletning boshqa qahramonlar bilan o'zaro munosabatlarni o'quvchilarga oydinlashtirib berishlari zarur.

Umumta'lim maktablarining 9-sinfida Shekspirning "Hamlet" fojiasi o'qish, mazmunini reja asosida og'zaki yoki yozma bayon qilish bilan birga qator nazariy bilimlar o'zlashtiriladi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalari yanada mustahkamlab boriladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Shekspirning "Hamlet" fojiasi 9-sinfda o'rgatiladi. O'qituvchi avvalo muallifning tarjimai holiga to'xtalish kerak bo'ladi, chunki ayni shu asar qahramoni kechmishlari ifodasi bilan uning mualliffi taqdirida ajib bir umumiylik borligini yoritishga yordam beradi. O'qituvchining adib hayoti va ijodi yuzasidan o'zi tuzgan savollarni o'quvchilarga berib, topshiriqlarni bajartirishi asarning yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Savollarga asosli va mantiqli javob qaytargan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratish kerak, toki, boshqa o'quvchilar ham mantiqli mushohada yuritishga, o'z fikrlarini chuqurroq asoslashga, chiroyli, lo'nda ifodalashga intilsinlar.

O'qituvchi o'zining kirish so'zida Shekspirning bolalik va o'smirlik yillarini, mashaqqatli hayoti, tinimsiz mehnat, oldiga qo'yilgan maqsad uchun kurashish haqida so'zlab berishi lozim, shuningdek, g'oyat olijanob hamda atroflicha bilimdon, mehr-muhabbatli insonlar ko'magi bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda o'qituvchining "Hamlet" fojiasini talqin usuliga murojaat qilishi tabiiy. Fojiada sevgi va muhabbat, hasad va inson ruhiyati, burch va sadoqat mavzusi uning o'zagidir. O'qituvchi o'z talqinini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Adabiy talqin - o'quvchining asar tarkibini to'la tasavvur etgan holda uning badiiyati va matnini tahlil qilishdan oldingi bosqich. Ayni chog'da u badiiy barkamol asarlarni zamon ehtiyojlariga muvofiq qayta baholash imkoniyatini yaratadi. Talqin vositasida o'qituvchi o'quvchi asarni o'qib mustaqil holda sezmagan yo anglamagan nuqtalariga diqqatni tortib, ma'no qirralarini yarq ettirib ochib yuboradi yoki ijodkor shaxsi, faoliyati, nuqtai nazari, tafakkur tarziga xos jihatlar sharhi orqali uning badiiy-estetik tafakkurining o'ziga xos "kalit" nuqtalarini topishda ko'maklashadi. Xullas, adabiy talqin vositasida badiiy

asarlarni estetik tahlil qilish, qayta baholash imkoni yaratildi, asarning badiiy-estetik ta'sir o'tkazishiga o'quvchi tayyorlantirildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, adabiy talqin va tahlil usullari asarning badiiyligini o'rganishda go'yo "birlashadi", yagona tahlilu talqin usuliga aylanadi. Dramatik asarni tafakkur qilish va poetik timsol tahlilida ayni shu holat kuzatiladi. O'qituvchi adabiy tahlilda o'quvchilar diqqatini Shekspir ijodida eng ko'p qo'llangan iboralarga qaratib, tahlilni chuqurlashtirishi lozim.

Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda adabiy tahlil usullariga tayanish lozimligini bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida, ilmiy risola va metodik ishlarida alohida ta'kidlaganlar. Muammoning psixologik va umumdidaktik tomonlari rus metodistlaridan Yu.K.Babanskiy, N.I.Kudryashov, V.G.Maransman, G.A.Gukovskiy, G.N.Ionin, L.S.Ayzerman, A.S.Bushmin kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, o'quvchilarning taassurotlariga ko'ra badiiy asarlarni tahlil qilish bilan birga yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan qiziqarli kuzatishlar mavjud. Jumladan, G.N.Ionin va A.S.Bushminlar o'rta maktabda yozuvchi faoliyatini ijodiy usullariga tayanib o'rganish haqida maxsus kuzatishlar olib borganlar.²³ Ularning fikricha, adabiy tahlil estetik tarbiya vositasi, ayni paytda tahlil jarayonida o'quvchi har qaysi ijodkorni shaxs sifatida tanib, o'rganib boradi, undan o'rnak oladi, natijada tarbiyalash imkoni yuzaga keladi.

G.A.Gukovskiy «Maktabda adabiy asarni o'rganishg» nomli kitobida o'quvchilarda adabiy tahlil malakasining tarkib topishi va umuman badiiy asarning o'quvchilar tomonidan tushunilishi adabiyot o'qituvchisining zamonaviy adabiyotshunoslikka oid bilimlari darajasiga, ijodkorligiga bog'liq ekanligini qator misollar yordamida asoslashga erishgan. Olim bugungi metodika fani adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslikda to'plangan tajribalarga tayanib taraqqiy etishi haqida ham o'z mulohazalarini bayon etgan. Har qanday adabiy

²³ Ионин Г.Н. Изучение литературного произведения в школе. Каранг: Бадий асар тахлили. Тўплам, Ленинград, Наука. 1976. 236 бет; А.С.Бушмин. Методологические вопросы. Литературоведческих исследований. Ленинград.1969. 43 бет.

tahlil ana shu uchlikning sintezi sifatida badiiyat sirlarini ochishga yo'naltirilishi zarurligini ilmiy jihatdan dalillagan.

A.Zunnunovning «Badiiy asar tahlili metodikasi» nomli qo'llanmasida 5-9-sinflardagi tahlilning o'zaro farqli jihatlari, ifodali o'qish – badiiy asarni o'zlashtirishning faol usuli ekanligi, asarlarni tahlil qilishda ko'rgazmalilikdan foydalanish kabi masalalar yoritilgan.²⁴

Tahlil namunasi sifatida eski o'quv dasturida o'qib o'rganish mo'ljallangan asarlardan berilgan. Tabiiyki, bu asarlar o'quvchilarning badiiy didini o'stirishga xizmat qilolmaydi.

Qo'llanmada adabiy tahlil shakli va mazmuniga oid qator qimmatli mulohazalar bayon etilgan, shubhasiz, ushbu qo'llanma adabiyot o'qitish metodikasi ilmining ravnaqiga xizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, muallifning badiiy ijodga, adabiy asarlarga munosabatida o'sha davr hukmron mafkurasining ta'siri sezilib turadi. Tahlil namunalarida ham asarlarni partiyaviylik, g'oyaviylik nuqtai nazaridan baholash ustunlik qiladi.

«Adabiyot o'qitish metodikasi» darslik-qo'llanmasida (A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov) bunday kamchiliklar bartaraf etilgan. Badiiy asarni tanlash va tahlil qilishga bugungi kunning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy talabalaridan kelib chiqilgan holda istiqlol mafkurasi, iqtidorli yoshlarni yetishtirish, milliy urf-odat, an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash asosida yondashilgan.

Oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan ushbu darslikda adabiy tahlil mazmuni alohida bobda badiiy asar matnini o'rganish, maktabda badiiy asarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar, tahlil turlari, vazifalari, badiiy asarni qiyoslab o'rganish, tur hususiyatiga ko'ra o'rganish masalalari bu bobda yoritilgan.²⁵

“Maktablarda olib borilgan tajribalar jarayoni, -deb yozadilar A.Zunnunov, N.Xotamov, J.Esonov va A. Ibrohimovlar, - o'quvchilarning asarni tahlil qilish malakasining qiyinchilik bilan egallashlarini ko'rsatib kelayotir. Buning asosiy

²⁴ Зуннунов А. Бадий асар таҳлили методикаси. Тошкент. Ўқитувчи. 1989. 120 бет

²⁵ Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент, Ўқитувчи. 1992. 334 бет

sababi, birinchidan, badiiy asarning san'at namunasi, ikkinchidan, adabiyotshunoslikka daxldor bo'lishidir. Shu sababli ham, o'quvchilar bir paytning o'zida ikki yo'nalishdagi fanni o'zlashtirishga, turli tarixiy davrlarda yaratilgan asarni ham ma'naviy, ham falsafiy, ham estetik jihatdan tahlil qilishga qiynaladilar. Bundan tashqari, adabiyotni turli sharoitda, ta'limning turli bosqichlarida o'rganish adabiyotshunoslik, estetika, bolalar psixologiyasi qonuniyatlariga rioya qilishni ham taqozo etadi. Maktabda badiiy asar ustida olib boriladigan ishdagi eng muhim va asosiy masala o'quvchilarda asarni badiiy tasavvur etish uchun zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatni va kitobxonlik madaniyatini o'stirib borishdan iborat».²⁶ Mualliflarning bu mulohazalari rus metodist olimlaridan V.G.Maransman va G.N.Ionin fikrlariga mushtarakdir.

Ma'lumki, turli sinflardagi adabiy tahlil o'zaro farqlanadi. Ammo adabiy asarni o'rganishda xususiy holatlardan tashqari umumiy holatlar ham bo'ladi. Darslik mualliflari badiiy tahlilga kirishishda o'qituvchidan quyidagilar talab etilishini alohida ta'kidlaganlar:

- a) darsni tashkil qilish;
- b) o'quvchilarning emotsionallikni anglash faoliyatini o'stirish, asarni o'qish ko'nikmalarini taraqqiy ettirish usullarini aniqlab olish;

Mazkur darslikda tahlilni ikki turga bo'lib o'rganish tavsiya etilgan:

1. Tanlangan qismlar bo'yicha yo'naltiruvchi, obrazli tahlil;
2. Asarni mufassal tahlil qilish.

Olimlaringiz adabiy tahlilning yana ikki turidan foydalanishni tavsiya etadilar:

1. Ijtimoiy hayot va adabiy jarayon muammolari tevaragida o'tkaziladigan tahlil (masalan, milliy mustaqillik va o'zlikni anglash uchun kurash tuyg'usining o'zbek she'riyatida ifodalanishiga oid analitik tahlil)

2. muayyan mavzu doirasida o'tkaziladigan ijodiy tahlil (bunday tahlil ko'pincha o'quvchilarning mustaqil o'qib o'rgangan asarlari asosida tashkil etiladi).

²⁶ Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов, Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент. Ўқитувчи. 1992. 160 бет

Badiiy asar matni ustida ishlash bosqichlarini darslik mualliflari bir-biri bilan bogʻlangan toʻrt mustaqil turkumga boʻlib oʻrganishni tavsiya qilganlar:

1. Kirish mashgʻuloti.
2. Asar ustida ishlash.
3. Oʻqish va tahlil qilish.
4. Yakunlovchi mashgʻulotlar.²⁷

Darslikda asar ustida ishlash bosqichlari haqida aniq mulohazalar uchramasa-da, koʻrsatilgan turkumlardan har biri alohida tadqiq va tahlilni talab etishini taʼkidlab oʻtish lozim. Shuni nazarda tutgan holda, izlanishimizda quyidagilarni yoritishga eʼtiborni qaratdik:

1. Kirish. (Bu bosqichda oʻqituvchi maʼlum asarning yaratilish davri, mavzusi, muammolari, tarixiy sharoit, yozuvchining tarjimai holi va ijodi xususida maʼlumot beradi).

2. Asar ustida ishlash (bu bosqichda asarni ifodali oʻqish va matn ustida ish olib borishga kirishiladi).

Matn ustida ishlash jarayoni bir necha bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

1. Asar janrini belgilash.
2. Asarning badiiy xususiyatlarini oʻrganish. Badiiy vositalar va sheʼriy sanʼatlarni qoʻllashdagi yozuvni mahoratini aniqlash;
3. Nasriy asarlar tahlilida yozuvchi uslubi va mahoratini yoritishga diqqatni qaratish.

“Adabiyot oʻqitish metodikasi” darsligida maktabdagi adabiy tahlil adabiyotshunoslikdagi tahlil mazmuniga monand boʻlishi, undagi tahlil usullaridan foydalanilishi haqidagi quyidagi mulohazalar asosli:

”... oʻqituvchi adabiyot oʻqitishda adabiyotshunoslikda oid badiiy hodisalarni, yozuvchining ijodini toʻgʻri talqin qilishga eʼtibor beradi. Buning uchun u taʼlim berish jarayonida adabiy matnni adabiyotshunoslikka qoʻllaniladigan usullarga suyangan holda tahlil qiladi, amaliy tajribasida adabiyotshunoslikdagi usullarga

²⁷ Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент. Ўқитувчи. 1992. 159-160-бетлар.

tayanadi, yozuvchining asosiy maqsadi-fikri, g‘oyaviy niyatini aniqlashda quyidagi maqbul usullardan foydalanadi:

1. Tarixiy, ijtimoiy–maishiy, adabiy sharhlar.
2. Badiiy asar kompozitsiyasini o‘rganish.
3. Asar ustida o‘tkaziladigan uslubiy kuzatishlar vositasida yozuvchi qo‘llagan tasvir vositalarini, foydalangan xalq maqollari, iboralari va ularning asardagi mohiyati va xususiyatlarini anglab olish malakasiga ega bo‘lish.
4. Yozuvchi hayotiy voqealarni qay darajada tasvirlaganligini aniqlash uchun asar qahramonlarini hayotdagi unga o‘xshash shaxslarga qiyoslash asar mohiyatini anglashga yordam beradi.
5. Bir-biridan farq qiluvchi ikki badiiy asarni qiyoslash yozuvchining so‘z ustida ishlashdagi ijodiy uslubini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi.
6. Yozuvchining bir asarini boshqa bir asari bilan qiyoslab o‘rganish usuli turli maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu usul adibning uslubi va dunyoqarashini puxta anglab olish imkoniyatini beradi.
7. 9-sinfda bir necha yozuvchining asarlarini yoki asarning tarkibiy qismlarini (peyzaj, portret) boshqa asarning qismlari bilan qiyoslash ulardagi axloqiy, ruhiy va ma‘naviy jihatdan bir-biridan farq qiladigan yoki o‘xshash xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat beradi,²⁸ - deb uqdirilgan.

Pedagogika fanlari doktori M.Mirqosimovanning «O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari» nomli monografiyasida tahlil usullarini quyidagicha izohlagan:

1. Badiiy asarni ifodali, ijodiy yoki sharhli o‘qish usullariga tayanib tahlil etish.
2. Adabiyotshunoslikda mavjud usullarni qo‘llash yordamidagi adabiy tahlil, muammoli tahlil.

²⁸ Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент. Ўқитувчи. 1992. 159-160-бетлар.

3. Tadqiqot usuliga tayanib tahlil yuritish. Bu usul o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltiriladi, ularda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikka doir malaka kurtaklarini hosil qilishga xizmat qiladi.

4. Adabiy matn asosida tekstual tahlil yuritish. Bu usul vositasida adabiy matnning badiiy xususiyatlari o'rganiladi.

5. Noan'anaviy usullarga tayanib adabiy tahlil yuritish. Bunday usullar badiiy asarning ayrim xususiyatlarini namoyon etishda qo'llaniladi. Masalan, tarqatmalardan foydalanib yozuvchi uslubiga xos xususiyatlarni tahlil etish, asardagi ayrim manzara tasvirini badiiy so'z vositasida chizish, ularning muvofiq keluvchi tomonlariga tayanib tahlil yuritish mumkin; yozuvchi tasvirlagan peyzajga mos rangli rasmlar vositasida manzarani o'quvchilarning o'zlariga badiiy tasvirlatish, tushirib qoldirilgan so'zlarni topib manzaraning yozuvchi tasviridagi nusxasini tiklashni topshirish yordamida ham tahlilga yo'llash yaxshi samara keltiradi. Bulardan tashqari bahs-munozara, adabiy suhbat, konferensiya, seminar va nazm darslari o'tkazish samarali natijalar berishini tajribada sinab ko'rdik",²⁹ - deb yozadi olima.

M.Mirqosimovanning "Adabiy tahlil metodikasi", "Badiiy tahlil usullari", "Adabiy asar tahlili mezonlarini o'rganish" singari o'quv qo'llanmalarida³⁰ ham masalaga ilk bor yangilangan pedagogik tafakkur talablari asosida yondashilgan. Olima badiiy asar tahlili uni ifodali o'qishdan boshlanishini alohida ta'kidlaydi.

Professor Q.Yo'ldoshevning "Yangilangan pedagogik tafakkur va adabiy ta'limning ilmiy-nazariy asoslari" doktorlik dissertatsiyasida ham masalaga yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanib munosabat bildirilgan. Olimning "O'qituvchi kitobi"da ham maktab adabiy ta'limiga estetik tahlilni olib kirish yo'llari o'qituvchining namunaviy tahlili, ijodkorlar yaratgan asarlarni qiyoslab tahlil qilish, asarning badiiy xususiyatlarini tahlil qilish kabilar

²⁹ Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари Тошкент. Фан. 2006. 86-87-бетлар

³⁰ Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. Тошкент. 1998. 33-36 бетлар

vositasida yoritilgan.³¹ Olim badiiy asar tahlili uni ifodali o'qishdan boshlanishni alohida ta'kidlaydi.

Demak, adabiyot o'qituvchilari bolalarni adabiyot, jumladan, dramatik asar bilan chuqur tanishtirish metod va usullari haqida jiddiy bosh qotirishlari lozim. Avvalo dramatik asarlar tahliliga oid nazariy bilimlarni o'qituvchilarning o'zlari chuqur egallagan bo'lishlari, so'ngra bu bilimlarni o'quvchiga yetkazish usullari haqida o'ylashlari lozim. Bu muammoni hal etishda o'quvchini asarni ifodali o'qishga o'rgatish talab qilinadi.

O'quvchi mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishadi. O'qituvchining namunali ifodali o'qishi orqali shu mazmunni his qildirishga erishish juda muhim. Chunki tahlil paytida uning badiiyatiga murojaat qilinadi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tag zaminidagi ma'nomi chuqur o'rganishga yordam beradi. O'qituvchi adabiy tahlil darslarini tashkil etganda muayyan asarni o'qib-o'rganishnigina maqsad qilib qo'ymaydi, balki adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, ruhshunoslik, didaktika, san'at, falsafa kabi fanlarning badiiy ijodga bog'liq qonuniyatlariga tayanib ish yuritadi. Bunda quyidagi masalalarni hal etish nazarda tutiladi:

1. Asarni tahlil qilishga o'quvchilarni tayyorlash, tahlilning maqsadi va mazmunini aniq belgilash;
2. Ishni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish; (Asar tahlilini o'quvchilarning yoshi, ruhiyati, bilim darajasi, his qilish qobiliyatiga e'tibor bergan holda va o'quv tahlili talablari asosida darslar taqsimoti hamda topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.)
3. Tahlil usullarini o'quvchilar egallaydigan bilim va malakalar doirasini oldindan aniq loyihalashtirish vositasida tanlash.

Drama-fojia kundalik hayotdagi hammaga tanish oddiy voqea-hodisalarning shunchaki ifodasi bo'lmay, balki favqulodda holat, jo'shqin hissiyot natijasi va hayajonli tafakkur mahsulidir. Yana shunisi borki, dramatik-fojia asari

³¹ Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. Тошкент. Ўқитувчи. 1997. 230 бет;

she'riy yo'sinda yaratilgan bo'lsa uning ta'sirchanlik qiymati ikki hissa oshadi. Zero, uning fikrlar qiymati bo'lishiga ko'ra hikmatga, ko'ngilga yo'l topishi jihatidan musiqaga qiyoslanishi bejis emas. Zotan, bunday asar badiiylikka jo bo'lgan ma'no, insoniy kechinma va ohang birligidan yuzaga keluvchi ta'sirchan, badiiy bo'yoqlarga boy, ruhiyat manzaralarini gavdalantiruvchi go'zallik olamidir. Bu olamga esa faqat uni tushunib o'qish orqaligina kirib borish mumkin. Badiiy ranglarni ilg'ash, badiiy so'z "ta'mi"ni sezish, timsollarga singishgan his-hayajonlar, tuyg'ular mohiyatini anglab olish orqaligina Shekspirning dramadagi hissiyotini qalbdan tuyishga erishamiz, hayajonlanamiz va shu go'zallik bizga zavq, huzur bag'ishlaydi.

Demak, adabiy tahlil jarayonida o'quvchilarga zarur nazariy bilimlarni tushuntirib borish ham ta'lim zaruratidan kelib chiqadi. O'qituvchi darslikdagi matn tahlilini o'quvchilarning mustaqil tahliliga ulab yuborishi mumkin. Buning uchun u o'quvchilarga qator yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Yaxshi bilamizki, uzluksiz adabiy ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni yosh xususiyatlari, bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borish taqozo etiladi. Negaki, adabiy ta'limning bosh vazifasi o'quvchilarning adabiyot namunalarini shunchaki o'qib qo'ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga, sehrli olamiga kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Bu jarayonda o'quvchining asosiy ish quroli darslikdagi asar matni hisoblanadi. O'quvchi kitob bilan mustaqil ishlashga, tushinib o'qishga, muhim fikrlarni ilg'ay olishga, borliqni, insonni, uning tuyg'ulari olamini kuzatishga ko'nikma hosil qila borishi maqsadga muvofiqdir. Matn ustida ishlash – uning badiiy, mantiqiy, estetik mazmunini anglash va tahlil qila olish, asosiy yoki ikkinchi darajali fikrlar orasidagi aloqa yoki farqni ajrata bilish, shu bilan birga o'z qarashlariga ega bo'lish demakdir.³²

Shu tariqa amalga oshiriladigan tahlil natijasida o'quvchilarida bir-birlarining fikrini quvvatlash yoki rad etish, o'zgani anglash, bir-birini tinglash, o'z

³² Хусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. Тошкент. 2003. 95 бет

qarashlariga o'zgalarni ishonтира olish, bir so'z bilan aytganda, bahs madaniyati tarkib toptiriladi.

Adabiy matn o'quvchiga san'atkorning ijodiy tafakkur tarzi, dunyoqarashi, shaxsiy sifatlariga oid muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bois adabiy tahlil va talqin usulidan samarali foydalanilgan holda o'quvchilarda tahlil malakasi shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tahlil darslarini tashkil etishda izlanish va ijodkorlikka yo'llovchi ilg'or ta'lim metodi va usullaridan foydalanish natijasida zarur malakalar shakllantiriladi. Darsning samaradorlik darajasini esa o'qituvchining bilimi, ijodkorlik qobiliyati, darsni ilmiy–metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishdagi mahorati belgilaydi. Barcha holatlarda adabiy tahlil vositasida o'quvchining badiiyat olamiga mehrini, badiiy ijod namunalaridan hayratlanish hissini uyg'ota olgan o'qituvchi faoliyatigina samarali yakunlanadi.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildiradigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtai nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning ijodiy o'y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san'atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o'rin tutadi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-

estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganiladi.

Bugungi kunda takomillashtirilgan kompetentlik yondashuviga asoslangan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Xususan, "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187- qarori va qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"³³ "Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat"³⁴ ekanligi belgilab o'tilgan bo'lib, bunda asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan:

- asosiy urg'u yuksak badiiylik talabalariga to'la javob beradigan asarlarga qaratish;
- ushbu bosqichda mumkin bo'lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko'ra oldingi bosqichlarda takrorlanmaydigan ijodkorlar va badiiy asarlar tanlash;
- ularni o'rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik berish.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o'rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko'paytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning o'ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug'diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so'zlarning qo'llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so'z poetikasi va b.)ni teranroq ilg'ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan

³³ "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187-қарори. www.lex.uz

³⁴ "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187- қарорининг 1-илоvasи "Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти". www.lex.uz 119-бет

ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o'ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan nisbatan "qiyinroq" va "murakkabroq" asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko'zda tutilganligi o'quvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar asos qilib olinadi. Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutilgan.

E'tiborlisi shundaki, 9-sinf o'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari sifatida quyidagilar:

"Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2 - badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildiradi; nasriy, she'riy asar namunalarini ifodali o'qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi; adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo'nalishda insho (6-7 sahifa) yoza oladi; adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi; turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

A2+ - turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi; badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2 - xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she‘riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi; badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi; asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg‘ular xususida fikr yurita oladi; badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi; asar qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab, xulosa chiqara oladi; xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og‘zaki tavsif bera oladi; musiqa yoki rangtasvir asari zahiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so‘z bilan ifodalab bera oladi.

A2+ - asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi; adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi, asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi; notiq mahoratini oshiruvchi asosiy omillarni izohlay³⁵ olishi belgilangan.

Ishimizda aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”da³⁶ (Tuzuvchilar: B.To‘xlijev, B.Karimov, K.Usmanova, H.Ahmedov, Sh.Toshmirmirzaeva, J.Nurmuxammadov, A.Ergasheva, G. Turdieva, T.G‘affarova, F.Karimova, M.Yusupova. **Ekspert guruhi:** G. Mamanboeva, M.Usmanova, M.Valieva) 9-sinf 4-choragida “Jahon adabiyoti” ruknida “Uilyam Shekspir ijodi. “Hamlet” tragediyasi”ga 4 soat ajratilgan bo‘lib, “10-nazorat ishi. Insho va tahlil: “Otello” timsoliga tavsif” mavzusi berilgan.

Taniqli adabiyotshunos va metodist olim Q. Yo‘ldoshev so‘zlari bilan aytganda: «Adabiyot o‘qitishning vazifasi har bir xalqni o‘zigagina xos ma’naviy

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Respublika ta’lim markazi. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. -T.: 2017. 78-bet

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Respublika ta’lim markazi. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. -T.: 2017

qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o'quvchilarga singdirish hamdir. Zero, o'z ma'naviyatini qanday qadriyatlarga tayanib shakllantirishni bilmagan shaxs xaritasiz noma'lum yurtga sayohat qilgan kishiga o'xshaydiki, ko'zlagan manzilini aniq tasavvur eta olmay uzoq sargardon bo'lish xavfi bor. Adabiy ta'lim o'z tarbiyalanuvchilarida milliy qadriyatlarga tayangan holda xulqiy sifatlarni shakllantirishday nozik yumushni uddalashi zarurdir. Xullas, adabiy ta'lim o'z oldidagi vazifalarni bekamu ko'st bajargan taqdirdagina barkamol shaxsni shakllantirishday ezgu maqsadga erisha oladi».³⁷

Darhaqiqat, jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi ko'p jihatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq. Mustaqillikni mustahkamlash, adolatli va ma'rifatli demokratik jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarni do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, birodarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ajdodlarimiz hamda avlodlarimizni bir-biriga tutashtirib, avlodlar davomiyligi va vorisligini ifodalab kelayotgan qadriyatlarimizning o'рни beqiyosdir. Badiiy asarlarda milliy qadriyatlarimizning qator ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ming yillar davomida sayqal topib milliy, ayni paytda, umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirib borish adabiy ta'lim oldidagi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Darslarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar:

1. Darslarda o'quvchini ma'lum bir muammo ustida bosh qotirishga shu muammoga o'z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo'llash.
2. Daqiqali dars davomida uning ma'lum bir bosqichida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
3. Dars o'tkazish uchun o'quvchilar oldindan tayyorgarlik ko'rishi maqsadga muvofiq.
4. O'quvchilarga muammoli savollar berilishi va shu muammoni har bir o'quvchi o'zicha hal qilgan holda darsga tayyorlanib kelishi kerak.

³⁷ Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. Тошкент. Ўқитувчи. 1997. 230 бет;

5. Darslarni har bir o'rganilgan asar yuzasidan pala-partish o'tib bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi asarni sinchiklab o'rganib, muammo-munozaraga sabab bo'ladigan o'rinlarni belgilashi, shu o'rinlar asosida o'quvchilarda munozara qo'zg'ay oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni o'quvchilarga xavola qilishi zarur.

6. O'quvchilarning darsdagi mas'ulligini oshirish va ularda o'rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosan evristik usulda foydalaniladi.

7. Biror asarni to'liq o'rganib bo'lingandan keyin ya'ni o'quvchi darslikda keltirilgan parcha-badiiy matn yoki asarni to'liq o'qib-o'zlashtirib bo'lgandan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchi asar bilan yaxshi va to'liq tanishmagan bo'lsa, berilgan muammoni to'g'ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O'z fikriga ishonmagan o'quvchi bahsga ham aralashib, faollik ko'rsata olmaydi.

8. Darslar o'quvchilarni fikrlashga, so'zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o'z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muhokama va munozara yuritishga o'rgatadi.

9. O'quvchilar haqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat munozara-muhokamada tug'iladi.

Quyida biz dars tashkil etishing 1 soatlik ishlanmasi namunasi beramiz.

3.2. Dars ishlanma

4-82 Adabiyot 9-sinf

Sana:

Dars mavzusi: Uilyam Shekspir hayoti va ijodi

Dars maqsadi:

a) ta'limiy - o'quvchilarga Uilyam Shekspir hayoti va ijodi, jahon adabiyotida tutgan o'рни haqida bilim va ma'lumotlar berish;

b) tarbiyaviy - o'quvchilarda jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash, insoniy tuyg'ularni tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi - o'quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash salohiyatini oshirish, badiiy adabiyotga va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;

Dars turi: noan'anaviy;

Dars uslubi: bahs, matn ustida ishlash, nazm gulshani;

Dars jihozi: darslik, Uilyam Shekspir siymosi, asarlari;

Darsning borishi:

Tashkiliy ishlar:

Darsning chaqiriq bosqichida:

- a) salomlashish, navbatchi axboroti;
- b) kitob-daftarlar nazorati;
- d) o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish;

O'tgan mavzu va uyga vazifani so'rash:

1. Tarqatmalar asosida Abdulla Oripov hayoti va ijodi yuzasidan olgan bilimlarni sinash;
2. Abdulla Oripov she'rlari asosida bahs-munozara. She'rlaridan yod so'rash va badiiy-g'oyaviy tahlil;

Darsning mohiyatini anglash bosqichida:

I. Siz Uilyam Shekspir, uning mashhur asarlari "Otello", "Hamlet"...haqida qanday tasavvur va tushunchalarga egasiz? Jahon adabiyotida Shekspirning tugan o'rni.

II. Yangi mavzu: Ingliz shoiri, dramaturgi, aktyori Uilyam Shekspir 1564-yilning 23-aprelida Yorkshir grafligidagi Stralford shahrida tug'ilgan. Otasi - Jon Shekspir shahar boshqaruvining turli lavozimlarida ishlagan. Onasi -Meri, kambag'al dveryanlardan, Robert Ardenning qizi.

Taxminlarga ko'ra Shekspir 1592-yilda Londonga boradi va teatrda aktyorlik qiladi. 1593-yilgacha biror asari e'lon qilingan emas. 1593-yilda "Venera va Adonis" nomli dostonini nashr qiladi. 1594-yil "Lukresiya"dostonini e'lon qiladi. Shu yil 28-dekabrda "Greyzz Inn" teatrida "Xatolar komediyasi" asari o'ynaladi.

1598-yilda aka-uka Berbejilar Temza daryosining janubiy qirg'og'ida "Globus" teatrini tikladilar. Shekspir ham shu teatrga hissa qo'shib, ham aktyorlik

qilar edi. 1603 yilda qirol Yakov Shekspir truppasini o‘z himoyasiga oldi. Shekspir 1616-yil 23-aprelda Shekspir olamdan o‘tdi.

Shekspir “Hamlet”da Arvoh, ”Sizga bu yoqadimi?” spektaklida Odam rollarini, Jonsonning “O‘ziga yetguncha”, ”Seyan” pesalarida rollar ijro etgan.

Shekspir o‘ttiz olti dramatik asar, 154ta sonet, bir necha doston yozgan. “Qirol Lir”, “Romeo va Juletta”, “Hamlet”, “Otello”, “Makbet” singari tragediyalar, “Yoz kechasidagi tush”, “Venesiya savdogari”, “O‘n ikkinchi kecha” komediyalari jahon adabiyotining nodir durdonalari sanaladi.

Shu o‘rinda o‘qituvchi Shekspirning quyidagi sonetlarini ifodali o‘qib beradi va qisqa hamda mazmunli tahlil etadi:

Birov rosa maqtanadi nasabi bilan,
Birov boylik, birov mulki, bisoti bilan,
Birov kuchi, birov temir asabi bilan,
Birov lochin, iskovich it va oti bilan.

Odamlarda har xil havas, ishqibozlik bor,
Ammo har kim uchun faqat bittasi afzal.
Men bir narsa bilan bo‘ldim g‘oyat baxtiyor,
Faqat o‘sha taqdirimni qila oldi hal.

Shundan keyin o‘qituvchi darslikda “Hamlet” tragediyasidan keltirilgan quyidagi parchani ifodali qilib o‘qib beradi:

BIRINCHI PARDA

IV SAHNA

Qasr oldidagi maydoncha. Hamlet, Horatsio va Marsell kirishadi.

Hamlet: Soat necha bo‘ldi ekan?

Horatsio: Sal kam o‘n ikki.

Marsell: O‘n ikkidan oshdi. Boya zang urdi.

Horatsio: Qarang, shahzodam!

(Arvoh kiradi).

Hamlet: Panoh bo‘ling bizga, osmon farishtalari!

*Kimsan, ruhi Yazdonmisan yo zilli shayton?
Jannat nafasimi yoki do‘zax hovuri,
Niyatingda savobmi yo kufrmi pinhon?
Ne bo‘lmasin, larza solding tashrifing bilan,
Shu sababdan yolvoraman, sendan so‘rayman.
Men so‘rayman sendan, aziz padarim Hamlet,
Hukmdorim, podshohim, javob bergaysan!
G‘aflat aro qolib ketmay. Javob ber menga,
Nechun zulmat makoningni bundoq tark etib,
Kafaningni yulib-yulqib otibsan nega?
Biz jasading qo‘yib kelgan o‘sha sag‘ana
Tosh jag‘larin yirib ming bir mashaqqat ila,
Nechun ozod qo‘ymish seni? Nechun, izoh ber?
Jonsiz jasad yarog‘ taqib, nechun musallahl?
Tun qo‘ynini asoratga to‘ldirib bundoq,
Oy nurida yoyib haryon qo‘rqinch, vahima,
Nechun bizning tomirlarga larza solursen?
So‘ngsiz muammolar bilan o‘rab olursen?
Nechun?
Ne sababdan?*

Gapir, farmoning nima? (Maqsud Shayxzoda tarjimai)

Darsni mustahkamlash bosqichi:

III. Uilyam Shekspir hayoti va ijodi haqida darslikda berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish, matn ustida ishlash.

IV. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.

1. Shekspirning hayot yo‘li, oilasi, olgan tarbiyasi, ijoddagi yutuqlariga e’tibor qiling.
2. Shekspir shaxsiyati va uning nomidan taqdim etilayotgan asarlar atrofidagi bahs-mulohazalarga munosabat bildiring.

4. Shekspir ijodida “Hamlet” fojiasi tutgan o‘rin haqida to‘xtaling.

1. Uilyam Shekspir ning ilk chop etilgan asari

- A. "Lukrewiya" B. "Otello"
C. "Venera va Adonis" D. "Hamlet"

2. "Xatolar komediyasi" asari qaysi teatrdagi o'ynaladi?

- A. "Blekfraerz" B. Qirollik teatrida
C. "Greyz Inn " D. "Globus"

3. Shekspir “Hamlet”da qaysi rolni ijro etgan?

- A. Arvoh B. Hamlet C. Odam D. Teatr aktvori

4. "Qirol Lir", "Hamlet", "Otello", "Romeo va Juletta " qanday yoʻnalishda yozilgan?

- A. Doston B. Drama C. Tragediya D. Komediya

5. Adib dostonlari berilgan qatorni toping.

- A. "Makbet", "Otello"
- B. "Venera va Adonis", "Lukresiya"
- C. "Xatolar komediyasi", "O'n ikkinchi kecha"
- D. "Otello", "Venetsiya savdogari"

Javoblar: 1. C 2. C 3. A 4. C 5. B

Uyga vazifa: Shekspirning “Otello” asarini to‘liq o‘qish. Insho yozishga tayyorgarlik.

Shuningdek, dars oxirida o‘qituvchi o‘quvchilarga insho yozishga tayyorgarlik ko‘rish uchun quyidagi tavsiya-eslatmalarni beradi:

O'quvchilarga insho yozishga tayyorgarlik xususida eslatmalar:

1. Avvalo, insho uchun mavzu tanlang. Shuni esda tutingki, mavzuga sarlavha tanlash muhim ahamiyatga ega. Inshoda nimalar haqida fikr yuritishingizni aniqlab oling.

2. Inshoning rejasini tuzing. Uning asosiy mazmunni aks ettirishi, insho mavzusi yuzasidan yoritmoqchi bo'lgan fikrlaringizga to'g'ri kelishi haqida o'ylang. Mavzuni yoritish uchun qanday shakl, qanday uslubni qo'llashingizni belgilab oling.

3. Mavzuni yoritish va bayon qilish uchun zarur ma'lumotlarni, ko'chirmalarni tanlang.

4. Inshoning qoralamasi tayyor bo'lgandan keyin uni o'qib chiqing: unda mavzu yetarli yoritilganmi? Rejada ko'rsatilgan bo'limlar to'liq yoritilmagan bo'lsa, ularni to'ldiring. Bunda mavzu (sarlavha) bilan insho mazmunining mos kelishiga ahamiyat bering.

5. Inshoning tili (bayon uslubi)ga e'tibor bering. Sizning fikr-mulohazalaringiz qay tarzda ifodalangan: tilda badiiylilik ta'sirchanlik ixchamlik va jozibadorlikka erishdingizmi? Yozilishi qiyin so'zlarni «Imlo lug'ati» asosida tekshirib chiqing. Zarur o'rinlarga tuzatishlar kiriting va inshoni oqqa ko'chiring.

XULOSA

Istiqlol davridan boshlab adabiy ta'limni yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanilgan holda yangilash, zamonaviylashtirish negizida isloh qilishga qaratilgan ijobiy jarayonlar ta'sirida ijodkor hayoti va faoliyatini o'rganish masalasiga yangicha yondoshuv qaror topdi. Yangilangan pedagogik taffakur va adabiy ta'limning ilmiy-nazariy asoslarining o'zbek olimlari tomonidan maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilishi natijasida adabiy ta'limning yangi yo'nalishidagi ravnaqi ta'minlandi. Adabiy ta'limga estetik tahlilni olib kirishga erishildi.

Mustaqillik davri adabiy ta'limining yetakchi maqsadlarini o'quvchi ma'naviyatining yuksaltirish; ijodkor hayoti haqidagi ma'lumotlarni o'rganish vositasida yoshlarda ham yaratuvchilik, bunyodkorlik xislatlarining tarkib toptirish; ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta'sirida o'quvchilarning ilmga, san'at va adabiyotga mehrini o'stirish; muayyan ijodkor asarlarini o'rganish orqali uning qalb harakatini, tuyg'ulari va ruhiyatini xis qilishga o'quvchini o'rgatish; shu yo'l bilan o'quvchilarning o'zgarar qalbini anglashga, o'zga odamlar dardini xis qilish, vositasida insonlarni ularning qalbi orqali tanishga o'rgatish natijasida dardkash, mehribon, ezgulikka intiluvchi, elu yurt dardlari va tashvishlariga befarq bo'lmagan insonni shakllantirishga erishish tashkil etdi.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyili ijodkorning hayoti bilan ijodini bir-biridan ajralmagan uzviy jarayon sifatida o'rganish, talqin va tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu bois, yozuvchi shaxsi, uslubi va mahoratini o'rganishni uzviylikda olib borishgina ta'limda ko'zlangan natijaga olib boradi.

Adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda ilg'or va samarasi kafolatlangan, loyihalashtirilgan darslar zamonaviy interfaol usullar qatorida adabiy talqin hamda tahlil usullarining o'рни bilan ahamiyati ortib bormoqda. O'tkazilgan tajriba sinov darslari shundan dalolat beradiki, adabiy tahlil vositasida matn mohiyatiga kirib borishi, obrazlarga jo bo'lgan ma'no qatlamlarini o'rganish; so'zlar bilan ohanglarga yuklangan badiiylikni o'rganishga erishilsa, adabiy talqin usuli vositasida o'quvchi ko'z o'ngida bularning barchasini yaxlit holda jonlantirishga,

his qilishga va tasavvur ettirishga erishiladi. Talqinchi-o'quvchi badiiy asar haqida asosli, mantiqiy, izchil mulohaza yuritishga o'quvchini yo'llaydi. U asar mohiyatini idrok etishda o'quvchiga ko'maklashadi, asarning o'ziga xos jihatlariga o'quvchi e'tiborini tortadi. Talqin qanchalik ehtirosli, jozibali, haroratli bo'lsa shunchalik ta'sirchanlik kasb etadi. Talqin o'quvchini badiiy asarni o'qish, o'zlashtirish va tahlil qilishga yo'llash vositasi. Adabiyot o'qituvchisiga talqinchi mahoratini egallashi ta'lim mazmunining takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shekspir kabi chinakam iste'dod egalari, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari hayoti va ijodidan namunalar umumta'lim maktablarida ikki sababga ko'ra o'rganiladi.

Birinchidan, bunday insonlarning hayot yo'lidan yoshlar o'rnak olishadi.

Ikkinchidan, ular bitgan asarlar har qanday millat yoshlari ma'naviyatini shakllantirishga asos bo'ladi.

Shu bois ham o'rta umumta'lim maktablarida Shekspir hayoti va ijodini o'rgatishga o'rin ajratilgan. Mashhur adib asarlarini umumta'lim maktablarining 9-sinfda o'rgatish ko'zda tutilgan.

Ta'lim berishda asosiy maqsad o'quvchilar ongiga fan asoslarini puxta sirgdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotidagi har bir hodisaga ongli yondashishiga tarbiyalash, egallagan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdir. Bu jihatdan adabiyot darsi yosh avlodni jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab, ko'p qirralidir. O'quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularga hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi, atrof muhit va inson xarakterining murakkabligini tushuntirish qobiliyatini, vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantiradi, rivojlantiradi. Ayniqsa, adabiyot darslari o'quvchilar ma'naviy dunyosini boyitishda muhim omildir. O'qituvchining dars o'tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va usullarni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir.

Adibning ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo'lgan hayot yo'li o'z aksini to'liqroq topadi. O'quvchi so'z ustasining kimligini, orzu-o'ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan ko'proq bilib oladi. Demak, bu yerda beriladigan ma'lumotlarning o'quvchi yoshlar uchun ma'rifiy ahamiyati katta.

Ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, ularning o'quv-biluv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, moddiy-texnika ta'minoti va o'qituvchining mahorati muhim ahamiyatga ega. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va insoniy sifatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Ta'lim berish jarayonida esa ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli metodlarni qo'llash lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, ta'lim metodlarini maqsadli, o'rinli va to'g'ri tanlash tamoyili ta'lim samaradorligini kafolatlovchi omilga aylanadi.

Ijodkorning tarjimai holini va ijodiy faoliyatini o'rganish, bir tomondan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga yetkazish, ularni milliy istiqlol mafkurasi, milliy ma'naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko'rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, eng muhimi, o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to'liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi, asarni o'qish uchun havas uyg'otadi.

Ta'limning mazmuni har tomonlama yetuk ma'naviyatli, ma'rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga yetkazish xar bir ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya'ni, o'qituvchidan, yuksak iste'dod talab qiladilar. Bu iste'dod faqat o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan

tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir. Bilimdonlik, tajriba, kasbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir.

Interfaol usullar o'qituvchi va o'quvchini darslik, kitob, gazeta va jurnal, internet kabi qo'shimcha manbalarga murojaat qilishga, mavzu yuzasidan axborotlarni mustaqil izlash, to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Interfaol usullar o'quvchilarni muammoni mustaqil yechish zaruriyati qarshisiga keltirib, uni qo'shimcha manbalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

O'qitishning zamonaviy usullari har turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday didaktik usullar kabi o'qituvchidan alohida tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Chunonchi vaqt, maydon va inson resurslaridan o'rinli va maqsadli foydalanish darsdan kutilgan natijani kafolatlovchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон. 2017 Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови “Халқ сўзи”//2016 йил 8 декабрь.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. “Халқ сўзи”// 2016 йил 16 декабрь.

3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. -Т.: Ўзбекистон. 2016

4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон. 2017

5. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020. Таълим тўғрисида (lex.uz)

6. “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187-қарори. www.lex.uz

7. “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187- қарорининг 1-илоvasи “Умумий ўрта таълимининг давлат таълим стандарти”. www.lex.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Respublika ta’lim markazi. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. -Т.: 2017

9. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot . Oqituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –Т.: “Sharq”, 2007

10. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5- sinf uchun darslik). –Т.: “Sharq”, 2007

11. Бушмин А.С. Методологические вопросы. // Литературоведческих исследований. Ленинград. 1969
12. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. –Т.: Фан, 2007
13. Зуннунов А. Бадиий асар таҳлили методикаси. –Т.: Ўқитувчи. 1989
14. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Ўқитувчи. 1992
15. Ионин Г.Н. Изучение литературного произведения в школе//Ленинград. Наука. 1976
16. Ибрагимова М., Шерматова Ҳ. Таълим жараёнида фаол усулларни қўллаш. Узлуксиз таълим.- Т.: 2005. 5-сон, - 16-17 б.
17. Yo'ldoshev Q. Yo'ldoshev Q. Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiy saboqlar (9- sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo'llanma). –Т.: “Yangiyo'l Poligraph service”, 2006
18. Yo'ldoshev Q.Yo'ldoshev Q.Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. –Т.: “Yangiyo'l Poligraph service”, 2010
19. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004
20. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. -Т.: Ўқитувчи. 1996.
21. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. Методик қўлланма. 7- синф. Ўзбек адабиёти дарслик-мажмуаси учун. -Т.: Ўқитувчи. 1997
22. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. -Т.: Ўқитувчи. 1997
23. Маҳмудов М. Болаларнинг ўқув мақсадлари –таълимни илмий лойиҳалаш омили // Халқ таълими. -2002. -5. –Б. 49
24. Мирзааҳмедов М.А., Нарманов А.Ж. Узлуксиз таълим тизимида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Узлуксиз таълим. 2004. 5-сон.
25. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари -Т.: Фан. 2006
26. Мирқосимова М. Ўқувчиларда таҳлил малакасини шакллантириш. -Т.: Ўқитувчи. 2000

27. Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. -Т.: Ўқитувчи. 1998
28. Неъматов А. ва бошқалар. Ижодий матн устида ишлаш. –Т.: Ўқитувчи. 1997
29. Саидов М. Ўрта мактабларнинг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. –Т.: Ўқитувчи. 2000
30. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: Янги аср авлоди. 2006
31. Усмонова О. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини адабий таҳлил ҳамда талқин усулларига таяниб ўрганиш. Пед.фан.ном. дисс... -Т.: 2007
32. Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастур. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5-9 синф). -Т.: Ўқитувчи. 2010
33. Қуронов Д. Адабий таълим ҳақида айрим мулоҳазалар//Адабий таълим ва ёшлар тарбияси. Республика миқёсида ўтказилган илмий-назарий анжуман материаллари асосидаги мақолалар тўплами. 3-китоб. -Т.: 2010
34. Ғуломов А.Қ., Қобилова Б.Ш. Нутқ ўстириш машғулоти. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
35. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. -Т.: Ўқитувчи. 2003
36. Ҳусанбоева Қ. “Ғулнор опа” муаммоси ва унинг ечими. Тил ва адабиёт таълими. 2004 йил, 6-сон, 12-бет

Internet saytlari:

37. www.ziyouz.com
38. www.literature.uz
39. www.Ziyonet.uz
40. www.ziyouz.com
41. www.krotov.info/lib_sec
42. www.literary.ru
43. www.snovid.ru